



O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Andijon davlat universiteti Pedagogika fakulteti

511900-pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi

4-bosqich "A"-guruh talabasi

POZILOVA BARNO SOBIRJON QIZINING

Bitiruv malakaviy ishi

**MAVZU: INSONIY MUNOSABATLARDA FIKRLARNING RANG-
BARANG BO'LISHI**

ILMIY RAHBAR:

YO.YUSUPOVA.

ANDIJON – 2015

Mavzu: Insoniy munosabatlarda fikrlarning rang-barang bo‘lishi

Reja.

Kirish: Mavzuning dolzarbligi

1bob. Insoniy munosabatlar muammolarini jahon psixologlari tomonidan o‘rganilishi.

1.1. Insoniy munosabatlar psixologiyasi

1.2. Muloqotning muvaffaqiyatli bo‘lishida shaxs sifatlarining o‘rni

1.3. Muloqotning psixologik tizimi

2.bob. Sotsial nazorat va ijtimoiy qoidalar

2.1. Fikrlar xilma-xilligining sabablari

2.2. O‘zaro tushunish qonuni

2.3. Muloqotda teskari aloqa va muloqot treningi

3 BOB. Amaliy taxlillar

3.1. Muloqotga o‘rgatishning o‘yin va noo‘yin shakllari

3.2. Muloqotda nizoli xolatlar va shaxs toifalari.

Xulosa.

Tavsiya.

Foydalanilgan adabiyotlar.

M U N D A R I J A

	KIRISH.	4-9
I BOB	Insoniy munosabatlar muammolarini jahon psixologlari tomonidan o‘rganilishi.	10
1.1	Insoniy munosabatlar psixologiyasi	10-17
1.2	Muloqotning muvaffaqiyatli bo‘lishida shaxs sifatlarining o‘rni	18-24
1.3.	Muloqotning psixologik tizimi	24-29
II BOB	Sotsial nazorat va ijtimoiy qoidalar	29
2.1	Fikrlar xilma-xilligining sabablari	29-34
2.2	O‘zaro tushunish qonuni	35-39
2.3	.Muloqotda teskari aloqa va muloqot treningi	39-45
3-BOB	Amaliy taxlillar	46
3.1	Muloqotga o‘rgatishning o‘yin va noo‘yin shakllari	46-50
3.2	Muloqotda nizoli xolatlar va shaxs toifalari	51-58
	XULOSA.	59
	TAVSIYA.	60
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.	61-63
	ILOVALAR.	64-68

Kirish Mavzuning dolzarbligi.

Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog‘lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga katta e‘tibor berilmoqda. Komil insonning muhim sifatlaridan biri muloqot madaniyatidir. Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o‘zlashtirish va o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Prezidentimiz I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning IX sessiyasidagi “... kelajak avlod haqida qayg‘urish, sog‘lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimiz” ekanligini alohida ta’kidlab o‘tadilar. I.A.Karimov “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” nomli risolasida mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy axloqiy negizlari, xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish yo‘llari haqida fikr yuritar ekan: “Mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrati manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tinchlik, ahil, qo‘shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab, asrab kelmoqda. O‘zbekistonni yangilanishning oliy maqsadi ana shu an’analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik , madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishiga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir”,- deb ta’kidlaydi.

Hozirgi kunda ijtimoiy amaliyotda muloqot va shaxslararo munosabatlar muammosi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muloqot va uning asosiy xususiyatlari, samarali muloqotning psixologik aspektlari, muloqotga o‘rgatishga oid psixologik mashqlar, samarali muloqotning psixologik vositalarini o‘rganish ishbilarmonlik faoliyatida asosiy o‘rinni egallamoqda. Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog‘lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga katta e‘tibor berilmoqda. Komil insonning muhim sifatlaridan biri muloqot madaniyatidir. Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida

insonlar tabiatni o'zlashtirish va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Barkamol insonlarning muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish uquvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyati ham, boshqa odamlar tomonidan taqlid qilinadi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi. Odamlar o'rtasidagi shaxslararo munosabat jarayonida g'ayritabiiy ijtimoiy holat yoki hodisaga ongli tayanish - o'zini - o'zi mukammallashtirish, o'zini - o'zi ro'yobga chiqarish, o'zini-o'zi boshqarish, o'zini - o'zi baholash, o'ziga - o'zi buyruq berish shaxsning ruhiy dunyosida muhim kamolot bosqichidir. Shuning uchun ichki va tashqi taqlidning tushunish hamda ularni bosqichma-bosqich egallab borish - bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishining garovidir.

Insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar sharqda o'ziga xos xususiyatga ega. Bugungi kun yoshlarini tarbiyalash va komil inson kilib yetishtirishda talaba - yoshlarni ma'naviy dunyosini boyitish, ularning ongiga milliy g'oya asoslarini singdirish, vatanparvarlik hissini tarbiyalash, o'tmish va buyuk kelajak haqida fikrlash, u bilan faxrlanish hissini, yangicha tafakkurni shakllanishi jarayonidagi ziddiyatlar va ularni bartaraf etish talab etiladi. Bu esa rivojlanaib kelayotgan jamiyatda, kelajak yosh avlod tarbiyasiga boglanar ekan muammoning dolzarb masalalar yechimigga karatilganligini izoxlaydi. Shu nuktai nazardan biz shaxs faolligida uziga xos xarakter kasb etuvchi jarayonlardan biri fikrlashning rang barang jixatda nomoyon bulishi va shaxslararo munosabatlarning psixologik xususiyatlarini yoritishga karatdik. Bu esa uringanilayotgan muammoning dolzarbligini taminlaydi.

Mavzuning o'rganilganligi: Shaxs rivojlanishida muloqotning roli to'g'risida psixologlar A.A.Lyublinskaya, D.B.Elkoninlar bolada o'yin faoliyati orqali muloqotning shakllanishini ta'kidlaydilar. Muloqot orqali shaxsning harakteri, irodaviy sifatleri shakllanishi haqida P.Ya.Galperin, N.F.Dobro'nin, N.F.Talo'zinalar o'zlarining tadqiqotlarini o'tkazganlar.

Shuningdek, Respublikamiz psixologlaridan M.G.Davletshin, E.G'oziev, N.P.Anikeeva, N.Safoev kabilar muloqot muammosini turli tomondan yoritib berganlar. Jumladan, professor E.G'oziev "Muomala psixologiyasi" o'quv qo'llanmasida muloqotning barcha qirralarini nazariy tomondan ochib berishga harakat qilgan. Professor M.G.Davletshin ham "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasida muloqotni kishilarda qanday shakllanishi haqida fikrlar bildirgan. L. S. Vigotskiy, A. N. Leontev, A.R. Luriya, D.B.Elkonin, A. V. Zaporozets, M. I.Lisina tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri - bu muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V.Zaporozets va M. I. Lisinalar tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlar tarzida rivojlanib boradi. Shaxs shakllanishida muloqotning ahamiyati haqida bir necha psixolog olimlar o'z fikrlarini bayon qilganlar. Jumladan, rus psixologi B.G. Ananov "Odam bilishning predmeti sifatida" asarida bu masalani chuqur tahlil qilgan. U bilimning turli elementlarini egallash muvaffaqiyatli o'zlashtirishning garovi ekanligini ta'kidlaydi. Bilimlarni egallash muloqot orqali amalga oshirilishini ham uqtirib o'tadi. Agar kishilar o'zaro bir-birlariga axborot o'zatmasalar, tajribalarini muloqot orqali almashmasalar ular rivojlanmay qolishlari to'g'risida B.G. Ananov asosli fikrlarni keltiradi.

B.G. Ananov fikricha: "Muloqot ijtimoiy va individual holatdir. Shuning uchun nutq bilan o'zviy bog'liq, kommunikativ vazifani bajarishda pantomimika, imo-ishoralar muloqot shakllari sifatida yuzaga chiqadi.

Demak, olim muloqot tushunchasini umumiy, yosh va pedagogik psixologiya kabi fanlar uchun chuqur tahlil qilib bergan.

Hozirgi paytda mamlakatimizda va xorijda muloqot muammosiga qiziqish ortib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kishilarning bir-birlari bilan qiladigan muloqoti katta ahamiyatga ega. Atoqli psixolog olimlardan yana biri V.N.Myasishev muloqot masalasiga chuqur yondoshgan, uni o'rgangan. Boshqa olimlar muloqotni nutq kommunikatsiyasi bilan bog'lab o'rgangan bo'lsalar,

V.N.Myasishev muloqotni jarayon sifatida o'rgangan. Ya'ni shaxslarning bir-biriga muloqot orqali ta'sir ko'rsatishlarini, bir-birlarini idrok qilish ob'ekti sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha: "Shaxs turlicha munosabatlarda qarama-qarshi sifatlarni namoyon qilishi mumkin," Tajribali psixolog A.A.Bodalev esa shaxs o'yinda, o'qishda, muloqotda, ya'ni faoliyatning turli sohasida o'zining o'rnini bilishi zarurligini uqtiradi. U o'zining "Shaxs va jamiyat" kitobida bu masalaga katta e'tibor beradi. Shuningdek, u bu muammolar kam o'rganilganligini ta'kidlaydi.

A. N. Leontev o'zining "Psixika taraqqiyotidan ocherklar" kitobida muloqotning uchinchi shakli—avlodlar o'rtasidagi muloqotning ahamiyati to'g'risida shunday deb yozadi: «Agar barcha katta avlod o'lib ketganida, insoniyat turi yo'q bo'lib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, balki yo'qolib ham ketishi mumkin edi». Haqiqatan ham, avlodlararo muloqotning borligi tufayli har bir jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta'lim, tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar.

Muloqotning hayotimizdagi shakl va ko'rinishlariga kelsak uning har bir shaxsning hayotiy vaziyatlarga mos keladigan, o'sha vaziyatlardan kelib chiqadigan ko'rinishlari va turlari haqida gapirish mumkin. Lekin umumiy holda har qanday muloqot yo rasmiy yoki norasmiy tusda bo'ladi. Ushbu masala bo'yicha psixologlar Yershov A.A, Kichanov I.M., Smolin G.L. bir qancha tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.Lekin muammo ustida ko'plab olimlar tadqiqot ishlari olib borgan bo'lsalarda,xali yechimini topish zarur bo'lgan masalalar mavjudligi, mavzuni tanlash imkonini berdi.Shu nuktai nazardan bu mavzu dolzarb muammolarni yoritishga qaratilgan.

Tadqiqot ishining maqsadi: Insoniy munosabatlarda fikrlarning rang-barang bo'lishining ijtimoiy psixologik jihatlari va muloqatdagi nizolarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.

Tadqiqotning vazifalari: Shaxs shakllanishida fikrlar rangbarangligi natijalari va ular asosidayuzaga keladigan nizoli vaziyatlarning ijtimoiy omillar (muhit, irsiyat, talim – tarbiya) ning shaxsni psixologik rivojlanishiga tasiri jihatlarini aniqlash.

Tadqiqot ishining predmeti: Insoniy munosabatlarda fikrlarning rang-barang bo‘lishida muloqatning shakli, vlsitalari psixologik tizimini nazariy va amaliy o‘rganish.

Tadqiqot ishining obekti: Insoniy munosabatlarda fikrlarning rang-barang bo‘lishida muloqat jarayoni.

Baliqchi tumani 40-umumta’lim maktabi o‘quvchilari. 30nafar.

Tadqiqot ishining ilmiy farazi:

1. Insoniy munosabatlarda fikrlarning rang-barang bo‘lishida fikrlar karama karshiligini nizolarni yuzaga keltiruvchi sabablar bo‘lib muloqatdagi ta’sir texnologiyasini shakllantirishga bog‘liq bo‘lishi mumkin.ta’sirini o‘rganish orqali komil insonni shakllanishini o‘rganish osonlashadi.

2. Nizolarni bartaraf etishda muloqatdagi tinglash texnikasi muxim xisoblanadi.

3. Ijtimoiylashuv sharoitlariga shaxsining moslashuvchanligi nizoni bartaraf etish usuli sifatida qo‘llash samarali natijalar berishi mumkin.

Tadqiqot ishining metodologik asosi: Sharq mutafakkirlari, chet el olimlarining shu mavzudagi qarashlari. Talim soxasidagi isloxotlar, yangiliklar, Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida umumtalim maktablaridagi o‘quv talim sistemasidagi o‘zgartirishlar haqidagi fikrlar. Yosh davrlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan olimlarning asarlaridagi fikrlar.

Tadqiqot ishining metodlari: kuzatish metodi, eksperement metodi, suhbat, anketa, sotsiometrik testlar va so‘rovnoma.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi: shaxsining shakllanishida ijtimoiy psixologik omillarning o‘rnini aniqlash orqali, fikrlar rang barangligini psixologik ta’sir xususiyatlari, rivojlanish qonuniyatlaridagi turli xil o‘zgarishlar, ularning

muloqat faoliyatiga bo'lgan qiziqishlari, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish malakalari o'rganiladi.

Tadqiqot ishining nazariy ahamiyati: Insoniy munosabatlar rang barangliging o'ziga xos jihatlarini o'rganish orqali nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish. To'plangan ilmiy manbaalar asosida ma'ruza matn, uslubiy qo'llanmalar tayyorlash.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati: Ilmiy ishdan kelib chiqqan xulosa va tavsiyalarga ko'ra shaxslararo nizolarni bartaraf etish, muloqatchanlikka o'rgatishi ijtimoiylashuv jarayonlarini oson o'zlashtirilishiga erishiladi.

Bitiruv malaka ishining tuzilishi: kirish, 3 bob, 7 bo'lim, xulosa, tavsiya va foydalanilgan adabiyotlardan iborat. Ilova kismida amaliy ma'lumotlarni to'ldirish uchun materiallar keltirilgan.

1. bob. Insoniy munosabatlar muammolarini jahon psixologlari tomonidan o‘rganilishi.

1.1. Insoniy munosabatlar psixologiyasi.

Insoniy munosabatlarning asosiy ko‘rinishi bo‘lib, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan o‘zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o‘zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta’sir o‘tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, tushunadilar. Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlarni maqsadga muvofiq ravishda qondirish muloqot maromiga bog‘liq bo‘lib, shaxslararo munosabat barkamol avlod, komil inson g‘oyalari qaror topishiga xizmat qiladi. Muloqot muvaffaqiyatining negizi shaxsning ruhiy dunyosi, ehtiyojlari motivatsiyasi, xarakter xislati, individual-tipologik xususiyati, qobiliyati, e’tiqodi kabi fazilatlar, sifatlar namoyon bo‘lishi, rivojlanishi hisoblanadi. Har bir normal kishi o‘zini o‘zgalarni tinglashga, o‘z fikrini birovlariga yetkazishga, ya’ni gapirishga, fikrlarini ba’zan yozni tarzda bayon etishga tug‘ma qobiliyatli tasavur qiladi. Lekin aslida ana shu birovlarni tushunish va o‘z fikrlarimiz, o‘ylarimizni birovlariga yetkaza olish qobiliyati bizning insoniy munosabatlar tizimida ekanligimizni, har birimiz o‘zimizga o‘xshash inson jamiyatisiz mavjud bo‘la olmasligimizni bildiradi.

Muloqotning turi va shakllari turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita «yuzma-yuz» bo‘lishi; u yoki bu texnik vositalar orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do‘stona bo‘lishi; subekt-subekt tipli yoki subekt-obektli bo‘lishi mumkinligini professor V. Karimova ta’kidlaydi.

Insoniy munosabatlar o‘zaro shunday ta’sir jarayonlariki, unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo‘ladi. Bunday jarayon dastlab kishilar o‘rtasida ro‘y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvish-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Kishilar muloqotda bo‘lgani sari ular o‘rtasida umumiylik, o‘xshashlik va uyg‘unlik kabi sifatlar paydo bo‘ladiki, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadi yoki «yarimta jumladan» ham fikr ayon bo‘ladi, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig‘izligi teskari reaksiyalarni — bir-biridan

charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig'iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig'izlik oilaning barcha a'zolari o'rtasida emas, uning ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin. O'zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko'zlaydigan asosiy maqsadlari — o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat kishi muloqotdan, ayniqsa uning norasmiy, samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar. Turli kasb-faoliyat sohasida ishlayotgan kishilar guruhining ko'payishi, ular o'rtasida munosabatlar va aloqaning dolzarbligi axborotlar tig'iz sharoitda oddiygina muloqotni emas, balki professional, bilimdonlik asosidagi muloqotni talab qiladi. Oxirgi paytlarda shunday kasb-hunarlar soni ortdiki, ular sotsionomik guruh kasblar deb atalib, ularda «odam-odam» dialogi faoliyatning samarasini belgilaydi. Jumladan, pedagogik faoliyat, boshqaruv tizimi, turli xil xizmatlar, marketing va boshqalar. Muloqot tashqi ijobiy ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi.

Barkamol insonlarning muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi munosabatga kirishish uquvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyatiga boshqa odamlar ham taqlid qiladi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi. Odamlar o'rtasidagi shaxslararo munosabat jarayonida g'ayritabiiy ijtimoiy holat yoki hodisaga ongli tayanish — o'zini-o'zi mukammallashtirish, ro'yobga chiqarish, boshqarish, baholash, o'ziga-o'zi buyruq berish shaxsning ruhiy dunyosida muhim kamolot bosqichidir. Shuning uchun ichki va tashqi taqlidni tushunish hamda bosqichma-bosqich egallab borish — bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishining garovidir.

Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi — o'zini-o'zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o'ziga va uni qurshab turgan odamlargai noto'g'ri

munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan, quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samara beradi:

1) hamkorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish;

2) muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay mavqeini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

3) insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllaril to'g'risidagi axborotni egallashiga oid maxsus mashg'ulotlarni uyushtirish. E,E,G'ozievning ta'kidlashicha "Inson o'zini erkin, ozod, bemalol his etish hislatini o'zlashtirish uchun jismoniy keskinlik, asabiy taranglik, aqliy zo'riqish orqali ko'zlangan maqsadiga yetishi umkin"¹

Muloqotga kirishuvchilarning o'zaro yaqinligi bilan, bir-birlari bilan muloqotdan qoniqish hosil qilganligining yuksak darajasi, javob tariqasidagi his-tuyg'ular va afzallikning o'zaro taxmin qilinishi bilan belgilanadigan o'zaro munosabatlar va o'zaro birgalikdagi harakatning barqaror individual-tanlash tizimi sifatidagi do'stlik kishilar munosabatining alohida shakli sifatida yuz beradi. Do'stlikning rivojlanib borishi uning o'zaro hamjihatlikning zarurligini, oshqoralik va ochiqlikni, ishonchni, o'zaro faol yordamlashuvni, samimiylikni va his-tuyg'ularning beg'arazligini qaror toptiruvchi yozilmagan qonun - qoidaga amal qilishini taqozo etadi. Transakt tahlil amerikalik psixolog va psixiatr **Erik Bern** tomonidan ishlab chiqilgan. U psixoanaliz (tahlil) g'oyalarini rivojlantirib, nazariy psixologiya va psixoterapevtik amaliyotdagi original yo'nalishlardan biri — «transakt tahlil yo'nalishiga asos soldi. Bu tahlilga ko'ra, shaxs uch EGO holatini o'z ichiga oladi: bolalik, ota-onalik, katta odam. Boshqalar bilan bo'lgan munosabatning har bir daqiqasida individ shunday EGO holatini o'z ichiga oladi:

- bolalik,

¹ (Э.Фозиев. Муомала психологияси. Т.2001 23-бет).

- ota-onalik,
- katta odam.

Boshqalar bilan bo‘lgan munosabatning har bir daqiqasida individ shunday holatlardan birida bo‘ladi. Insonlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida turli signallar almashinadi. Ushbu signallar transaksiya deyiladi. Transaksiya bu — muloqotga kirishayotgan individlar EGO holatlarining o‘zaro ta‘siridir. Har biri stimul va javob transaksiyalardan iborat. Transaksiya muloqot ishtirokchilaridan birini EGO holatidan olib chiqadi, birini bu holatga yo‘naltiradi.

E. Bernning transakt tahliliga ko‘ra insonda uchta «MEN» mavjud: **bolalik (B)** — bo‘ysunuvchi, mas‘uliyatsiz, spontan reaksiyalarni namoyon etuvchi, nazoratsiz faolligi yuqori bo‘lgan holat. Ushbu holatda bola o‘z kechinmalarini so‘zlar bilan emas, balki hissiyotlar bilan namoyish etadi. Bu holatning jismoniy belgilari: yig‘lash, qaysarlik, ming‘irlash, qo‘rquvdan cho‘chib tushish, yelka qisish, masxara qilish, kulish, biror narsa deb aytish uchun qo‘l ko‘tarish, uyalish, burun tortish. Bolalik holatida inson quyidagi: «xohlamayman», «qilmayman», «oyi, men ketdim», «men katta bo‘lganimda...», «hammadan ko‘p», «eng yaxshi» kabi iboralardan foydalanadi. Katta odam bu so‘zni, ya‘ni «men katta bo‘lganimda» iborasini «men boyib ketganimda» degan shaklda ifodalaydi. Bolalar shu bilan birga «Nega? Qachon? Qaerda? Kim? Qanday?» savollardan ham foydalanadi. Bu — bolada kattalik holati uyg‘onayotganligini ko‘rsatadi. Bolalik holati quyidagilarga bo‘linadi:

- tabiiy bolalik «men»i,
- moslashuvchi bolalik «men»i
- norozilik qiluvchi bolalik «men»i.

Muloqot jarayoni o‘ziga xos ravishda murakkab bo‘lib, bunda uch xil bosqich mavjud. Dastlabki bosqich – odamning o‘z-o‘zi bilan muloqotidir. T.Shibutani «Ijtimoiy psixologiya» darsligida: «Agar odam ozgina bo‘lsa ham o‘zini anglasa, demak, u o‘z-o‘ziga ko‘rsatmalar bera oladi» - deb to‘g‘ri yozgan edi. Odamning o‘z-o‘zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining

xarakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o‘z-o‘zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o‘zini chetga tortib, tortinib yursa, demak u boshqalar bilan suhbatlashishda, til topishishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, deyish mumkin. Demak boshqalar bilan muloqot – muloqotning ikkinchi bosqichidir.

A.N.Leontev o‘zining «psixika taraqqiyotidan ocherklar» kitobida muloqotning uchinchi shakli – avlodlar o‘rtasidagi muloqotning ahamiyati to‘g‘risida shunday yozadi: «Agar barcha katta avlod o‘lib ketganida, insoniyat turi yo‘q bo‘lib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiti anyaa orqaga surilibgina emas, balki yo‘qolib ketishi ham mumkin edi». Haqiqatdan ham, avlodlararo muloqotning borligi tufayli har bir jamiyatning o‘z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo‘ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg‘or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta‘lim, tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan avlodga uzatadilar.

Shaxsning har tomonlama shakllanishida muloqotning ahamiyati katta. Oddiy narsalarni o‘rganish uchun ham taqlid orqali o‘zaro muloqotda bo‘lish zarur. Jamiyat qonun-qoidalariga asoslangan holda munosabatlar rivojlanadi. Individ bilan shaxs muloqoti o‘rtasida juda katta farqni ko‘rish mumkin. Masalan, go‘dak, ruhiy kasal, ongi past rivojlangan kishilarning muloqoti bilan yetuk rivojlangan, ongi yuksak kishining muloqoti o‘rtasida katta farq bor. Ongli shaxs muloqotni boshlashdan aval miyasida o‘ylaydi, so‘zlarini rejalashtiradi. Shaxsning jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishida muloqotning o‘rhi katta. Masalan, axloqiy rivojlanish uchun oilada, maktabda, bog‘chada bolaga kattalar muloqot orqali ta‘sir qiladilar. Shuningdek, estetik, aqliy, jismoniy rivojlantirish uchun o‘quvchiga o‘qituvchi muloqot orqali ta‘sir etishga harakat qiladi. Demak, muloqot ta‘sir qilish vositasi bo‘lib ham xizmat qiladi.

Muloqotning hayotimizdagi shakl va ko‘rinishlariga kelsak uning har bir shaxsning xayotiy vaziyatlarga mos keladigan, o‘sha vaziyatlardan kelib chiqadigan ko‘rinishlari va turlari haqida gapirish mumkin. Lekin umumiy holda

har qanday muloqot yo rasmiy yoki norasmiy tusda bo'ladi. Agar rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvor normalaridan kelib chiqali. Muloqatda insonlarning nutqi vatili muhim vosita hisoblanadi. Nutq til imkoniyatlarining me'yor g'alviridan o'tkazilgan holda yuzaga chiqishi, voqe' bo'lishidir. "Nutq- kishi faoliyatining turi, til vositalari asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq deganda so'zlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Nutq – bu insonning eng oliy, murakkab, ruhiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi"². Inson tashqi olamdagi predmetlar va hodisalarni sezgi organlari yordamida va nutq vositasida idrok etadi. So'z signalizatsiyasi, ya'ni nutq tufayli odam borliqni umuman, fikran idrok etishi mumkin. Nutq organlari - odam organizmining nutq tovushlari hosil bo'lishida qatnashadigan turli qismlaridir. Faol nutq organlariga - til, lab, yumshoq tanglay, passiv nutq organlariga esa tishlar, qattiq tanglay, burun bo'shlig'i kiradi.

Nutq o'zaro aloqa va habar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. "Nutq-tafakkur mahsuli, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog'liq holda o'stiriladi"³.

Muloqot ta'lim-tarbiya jarayonida, turli vaziyatlarda rivojlanadi. Masalan, oilada, mahallada, jamoada, guruhda. Agar oilada kattalar bir-birlariga qo'pol munosabatda bo'lsalar, bola ham ularga taqlid qilib atrofdagilar bilan nizolarga borishi mumkin.

Har tomonlama rivojlangan, yetuk, komil insonni tarbiyalash uchun yoshlarni erkin fikrlaydigan qilib voyaga yetkazish zarur. Demak, muloqot fikrlash bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Shaxsning shakllanishida muloqotning ahamiyati haqida psixolog olimlar o'z fikrlarini bayon qilganlar. Jumladan, psixolog B.G. Ananov «Odam bilishning predmeti sifatida» asarida bu masalani chuqur tahlil qilgan. U bilimning turli elementlarini egallash muvaffaqiyatli o'zlashtirishning garovi ekanligini ta'kidlaydi. Bilimlarni egallash muloqot orqali

²Ashrapova T. Odilova M. Ona tili metodikasi. T., "O'qituvchi", 1994, 142-bet.

³G'ulomov A, Qobilova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. T., "O'qituvchi" 1995 yil,6-bet.

amalga oshirilishini ham uqtirib o‘tadi. Agar kishilar o‘zaro bir-birlariga axborot uzatmasalar, tajribalarini muloqot orqali almashmasalar rivojlanmay qolishlari to‘g‘risida B.G. Ananov asosli fikrlarni keltiradi.

B.G. Ananov fikricha muloqot ijtimoiy va individual holatdir. Shuning uchun nutq bilan uzviy bog‘liq, kommunikativ vazifani bajarishda pantomimika, imo-ishoralar muloqot shakllari sifatida yuzaga chiqadi.

Demak, olim muloqot tushunchasini umumiy, yosh va pedagogik psixologiya kabi fanlar uchun chuqur tahlil qilib bergan.

Hozirgi paytda mamlakatimizda va xorijda muloqot muammosiga qiziqish ortib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kishilarning bir-birlari bilan qiladigan muloqoti katta ahamiyatga ega. Psixolog olim V.N. Myasishev muloqot masalasiga chuqur yondashgan, uni o‘rgangan. Boshqa olimlar muloqotni nutq kommunikatsiyasi bilan bog‘lab o‘rgangan bo‘lsalar, V.N. Myasishev muloqotni jarayon sifatida o‘rgangan. Ya’ni shaxslarning bir-biriga muloqot orqali ta’sir ko‘rsatishlarini, bir-birlarini idrok qilish obekti sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha: «Shaxs turlicha munosabatlarda qarama-qarshi sifatlarni namoyon qilishi mumkin. Tajribali psixolog A.A. Bodalev esa shaxs o‘yinda, o‘qishda, muloqotda, ya’ni faoliyatning turli sohalarida o‘zining o‘rnini bilishi zarurligini uqtiradi. U o‘zining «Shaxs va jamiyat kitobida bu masalaga katta e’tibor berib, bu muammolar kam o‘rganilganligini ta’kidlaydi. A. A. Bodalevning fikricha, «insonni muloqot orqali tarbiyalashda bu unga qanday ta’sir qilishini avvaldan o‘ylash zarur»⁴

Insonning uni o‘rab turgan olamga o‘zaro ta’siri obektiv munosabatlar tizimida namoyon bo‘ladi, ob’ektiv munosabat va aloqalar so‘zsiz har qanday real guruhlarda paydo bo‘ladi. Guruh a’zolarining bu ob’ektiv o‘zaro munosabatlari sub’ektiv shaxslararo munosabatlarda aks etadi. Har qanday ishlab chiqarish

⁴ (A. A. Бодалев. Шахс ва мулоқот. М.1997., 17-6.)

odamlarning o‘zaro birlashishini talab qiladi. Hech bir kishilik jamiyati agar unda odamlar bilan munosabat o‘rnatilmasa, ular bir-birini to‘g‘ri tushunmasdan to‘laqonli birgalikdagi faoliyatni tashkil eta olmaydi. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarga biror narsani o‘rgatish uchun ular bilan munosabatga kirishishi kerak.

Muloqot kishilarning hamqorlikdagi faoliyati ehtiyojlari asosida tug‘iladigan ular o‘rtasidagi aloqa rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir.

Muloqot hamqorlikdagi faoliyat qatnashchilari o‘rtasida axborot almashinishni o‘z ichiga oladi, bu muloqotning kommunikativ tomonida ifodalanadi. Odamlar bir-biri bilan munosabatga kirishishda tildan muomala vositasi sifatida foydalanadilar.

1.2. Muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida shaxs sifatlarining o'rni.

Har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlarini, hatto nuqsonlari ham muloqot jarayonining mahsulidir. Har qanday muloqotning eng sodda vazifasi — suhbatdoshlarning o'zaro bir-birlarini tushunishlarini ta'minlashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salom-alik, suhbatdoshni ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. Bu jihat milliy o'ziga xoslikka ega. Yana bir muhim vazifasi ijtimoiy tajribaga asos solish bo'lib, odam bolasi faqat odamlar orasida ijtimoiylashadi, o'ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi — u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Kishilar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan kishining qo'li ishga bormaydi. Har qanday yolg'izlik va muloqotning yetishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, hadiksirash, xavotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shaxsning muloqotga bo'lgan ehtiyojining to'la qondirilishi uning ish faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Kishilar, ularning borligi, shu muhitda o'zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko'pincha odamning ishlash qobiliyatini oshiradi, ayniqsa, gaplashib o'tirib qilinadigan ishlar. Odamlar yonidagi hamkasbiga qarab ko'proq, tezroq ishlashga kuch va qo'shimcha iroda topadi. Bu hamkorlikda o'sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o'rtasida o'zaro simpatiya hissi bo'lsa, unda odam ishga «bayramga kelganday» keladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun amerikalik olim Dj. Moreno sotsiometrik uslubni ishlab chiqqan edi.

Demak, muloqot kishilarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Psixologlar G.Asmolov, P.Shixerev, V.A.Yadov, P.Nadirashvili larning fikricha ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirish uchun shu ustanovkalarning sababi bo'lgan vaziyat yoki faoliyatning maqsadi va motivini o'zgartirish shartdir. Shu narsa shaxsning aktiv ongli faoliyatida sodir bo'ladi. Shaxs ijtimoiylashuv jarayonida turli ustanovkalarni ro'yobga chiqarish sharoitida faollik ko'rsatadi. Shunday faollikning natijalarini biz uning ijtimoiy psixologik sifatlarida ko'ramiz. Ya'ni

aktiv birgalikdagi faoliyat, o‘zaro muloqot jarayonida shaxsning ijtimoiy psixologik fazilatlari shakllanadi. Shuning uchun ham barcha sifatlar faoliyatda namoyon bo‘ladigan hamda muloqotda ko‘rinadigan sifatlar guruhiga bo‘linadi. Har bir kishining o‘z “Meni” atrofdagilar bilan bo‘ladigan muloqot jarayonida shakllanadi, Shaxsning hayot yo‘llari avval oilada, bog‘cha, maktab, institut, ishxona, keksalar orasida, ya’ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Bizning yuksak ma’naviy ehtiyojlarimizdan biri - bu muloqotga bo‘lgan ehtiyojdir. Muloqotga bo‘lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo‘lgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir bo‘lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz.

Ijtimoiy hayotdagi katta yutuqlar bilan bir qatorda, shaxslararo munosabatlarda til odobi, nutq madaniyatida buzilishlar davom etmoqda, o‘zbek tilining mo‘saffoligi, aniq va lo‘ndaligi, mantiqiyliqi, ohangdorligi va silliqliqi muloqotda o‘z ifodasini topa olmayapti, natijada uzatilayotgan fikrlarni idrok qilish qiyinlashmoqda. Muloqot psixologiyasining asosiy maqsadi, avvalo nutq madaniyatini yoshlarda shakllantirishdir. Shuningdek, o‘qitish jarayonida bo‘lajak mutaxassislariga muloqot madaniyati, muomala sirlarini singdirish, guruh va jamoalarda o‘zaro munosabatlarni muloqot orqali yaxshilashdir. Muloqotning nazariy va metodologik muammolarini hal qilish, muloqotni nutq bilan birgalikda rivojlanishini ta’minlash fanning asosiy maqsadini tashkil qiladi.

Muloqot ishtirokchilari o‘z ongida bir-birlarining ichki dunyosini qayta tiklashga, his-tuyg‘ularini, xulq-atvorining sabablarini fahmlab yetishga harakat qiladi. Shaxs boshqa odamlarning tashqi qiyofasi, ularning fe’-atvori va xatti-harakatlari, ularga qo‘llanadigan kommunikativ vositalar orqali o‘zi bilan muloqotga kirishgan odamlarning kimligini tushunib yetish, ularning qobiliyatlari, niyatlari haqida xulosa chiqara olish uchun muayyan ishni bajarishiga to‘g‘ri keladi.

Taniqli psixolog S.L. Rubinshteyn shunday deb yozgan edi: «Kundalik hayotda odamlar bilan muloqotga kirishar ekanmiz, biz ularning xulq-atvoriga qarab mo'ljallanib olamiz. Negaki, biz ularning tashqi ma'lumotlari mohiyatini go'yo «o'qib», ya'ni «mag'zini chaqib» chiqamiz, shu yo'sinda matnning ichki psixologik jihati mavjud bo'lgan mazmunini aniqlaymiz. Bunday o'qish naridan beri tez yuz beradi, chunki atrofdagilar bilan muloqot jarayonida bizda muayyan darajada ularning fe'-atvoriga nisbatan avtomatik tarzda amal qiladigan psixologik ichki ma'no hosil bo'ladi.»

Bu sifatlarni ba'zi mualliflar perseptiv qobiliyatlar deb atasalar, boshqalari «ijtimoiy ta'sirlarga hissiy javob berish qobiliyati», «kuzatuvchanlik», «ziyraklik» deb atashgan.

Boshqa sifatlarni muloqotda namoyon bo'luvchi sifatlardir. Ular turli ijtimoiy kutishlar sistemasi bilan bog'liq bo'lib, shaxsning turli sharoitlarda to'g'ri muloqotga kirishish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari har shaxsda o'ziga xos tarzda dunyoni, odamlarni idrok qili shva tushunish qobiliyati borki, ular muloqot jarayonida kamroq xatolarga yo'l qo'yishni ta'minlaydi. Masalan, bosliqlik, mulohazalilik, o'zgalarning ichki dunyosini gaplari, xatti-harakatlariga qarab bilish qobiliyati va boshqalar ushlar jumlasidandir. Shu fazilatlarining qanchalik namoyon eta olishiga qarab shaxs tiplari farqlanadi:

Ekstrovert va introvert, mobil va rigid, dominant va tobe.

Ekstrovetr va introvert toifali shaxs tiplari muloqotga kirisha olish qobiliyatiga ko'ra farqlanadi. Masalan, ekstrovert – o'ta muloqotga kirishuvchan, o'zini odamlar guruhisiz tasavvur eta olmaydigan shaxsdir. Uning uchun muloqot haqiqiy ehtiyojdir, boshqalarning uni tushunish, tushunmasliklaridan qat'iy nazar u doimo o'z fikr istaklarini o'rtoqlashgisi keladi. Ekstrovert uchun konkret kim bilandir muloqotda bo'lish emas, umuman kim bilan bo'lsa ham muloqotda bo'lish xohishi muhimdir. Shuning uchun ham u umuman begona odam bilan gaplashib, kirishib keta oladi. Gaplashgisi kelmagan begonaning psixologiyasini tushunishi qiyin («Qanday qilib gaplashishni xohlamaslik mumkin?» deb o'ylaydi).

Ekstrovertning qiziqishlari ham tez-tez o'zgarib turadi, do'stlari o'rtoqlarini ham almashtirib turishga intiladi, bundan tashqari o'ta kirishuvchan bo'lganligi uchun ham har qanday sharoitda vaziyatdan chiqish usullari to'g'risida tez xulosaga keladi. O'ta qiziquvchan, dunyoda bo'layotgan hodisalar, «mish-mishlar»ni bilish uning uchun zarur. Ekstrovert kek saqlamaydi, bugun urushgan odami bilan ertaga hech narsa bo'lmaganday apoq-chapoq bo'lib ketishi mumkin.

Introvert esa ekstrovertning teskarisi. U ko'proq ichki diolog formasidagi muloqotni afzal ko'radi, ya'ni yolg'izlikda mulohaza yuritish, o'zi haqida o'ylash va shunga o'xshaganlar uning uchun asosiy ishdir. Shuning uchun ham unda muloqotga ustanovka juda sust, odamlarning uni tushunmay qolishlaridan doimo xavotirda bo'ladi. Introvert kitoblar olami, falsafiy qarashlar qulidir. Chunki u odamlar guruhida sodir bo'lib turadigan ziddiyatlardan cho'chiydi, o'zini olib qochadi. Agar muloqotda bo'ladigan bo'lsa, 2-3 kishidan ortiq bo'lmagan guruhni afzal ko'radi. Shunda ham har kuni emas, ba'zan-ba'zan uchrashib turish, gaplashganda ham «shaxsiy» mavzularda emas, umumiy gaplar haqida suhbatlashishni yaxshi ko'radi. Chunki u ekstrovertdan farq qilib, o'z «men»ini boshqalarga o'xshamasligini doimo esda tutadi. Introvert doimiy standartlar, belgilangan normalar olamida yashaydi. qiziqqan narsasi bilan umrining oxirigacha bo'lsa shug'ullanishga tayyor, umr yo'ldoshiga sodiq, vafodor, do'stlarga ham xudi shunday.

Mobil va rigid toifali shaxs tiplari muloqotga kirishish mezoniga ko'ra farqlanadi. Masalan, mobil tip har qanday ish bilan mashg'ul bo'lgan sharoitda juda tez muloqotga kirishadi, lekin boshqa narsalarga ham diqqatini ko'chirishi mumkin. U tez gapiradi, doimo shoshadi, yuz ifodalari ham tez o'zgaradi. Suhbat mavzusini ham tez-tez o'zgartirib turishga ham moyil. Gaplashib ketishi qanchalik oson bo'lsa, gapni tugatib xayrlashib ketishi ham shunchalik oson. Suhbat tugagandan so'ng qolgan ishlarini davom ettirib ketaveradi.

Rigid suhbatdosh esa uning aksi. Bunday shaxs qat'iyatli, dadil bo'lsa ham, bir faoliyat turidan ikkinchisiga ko'chisi juda qiyin, u ma'lum muddatni talab

qiladi. Chunki u o'ylamasdan tavakkal ish qila olmaydi. Masalan, u xat yozayotgan paytda kirib qolsangiz, to biror bo'lagiga nuqta qo'ymaguncha sizga qaramaydi. Qaragandan keyin esa, tezgina suhbatga kirisha olmaydi. Rigid shaxs juda yaxshi suhbatdosh. Mobil tipdagi suhbatdosh bilan gaplashayotganda u tez-ez gapni bo'lib, suhbatdoshga tashabbusni bergisi kelmaydi, rigid esa juda diqqat bilan tinglaydi. Lekin o'zi gapirganda, sekin, mantiqan to'g'ri gapirishni xush ko'radi, gapini bo'lishlarini sira istamaydi. Agar suhbatni bo'lsangiz, keyingi safar siz bilan gaplashmay qo'ya qolishni afzal ko'radi. Agar u bilan urishib qolsangiz, ancha vaqtgacha uning jahli chiqmaydi, sizni oxirigacha eshitib, sekin javob beradi, undagi ranjish, jahl chiqishi odatda siz ketgandan keyin boshlanadi. Agar uning suhbatdoshi toqotsiz odam bo'lsa, ikkilasining chiqishi qiyin, chunki u uzoqdan kelib tushuntirishni yaxshi ko'radi. Demak, bu tiplar ham har xil, har birida ham yaxshi ham yomon sifatlari bor.

Dominant tip muloqot jarayonida sira ham boshqalardan past kelishni xohlamaydi, savol berilsa, xohlasa javob beradi, bo'lmasa indamasligi ham mumkin. U doimo suhbatdoshga ta'sir ko'rsatishi, uning bo'ysunishini xohlaydi. Unda igoizm hissi kuchli, o'zi xato fikr yuritsa, xatoligini suhbatdosh sezsa ham uni bo'yniga olmaydi, dominant tip qat'iyatli. Suhbat davomida u sizning fikringizni yarim yo'lda tushunsa, sizni oxirigacha tinglashni istamaydi, gapni bo'lib, mayinlik bilan gapni tugatib qo'yishi mumkin. Agar ikkala suhbatdosh ham dominant tip bo'lsa, unda ular o'rtasida osongina raqobat hissi yuzaga chiqishi, kelishmay qolishlari mumkin. Shuning uchun janjallashib qolmasligi uchun dominant shaxsning mustaqilligi, dadilligiga ko'nish, unga o'z nuqtai nazarini oxirigacha bayon etish imkoniyatini berish lozim.

Tobe tipli shaxs suhbatdoshning qarashlariga moslashadi. Doimo yon berishga tayyor, shuning uchun u kam janjallashadi, lekin yomon ko'rib qolgan odami bilan umuman gaplashmaydi. Suhbat sharoitidagini u asta-sekin o'zining dadilligini ko'rsatishi, ochiq gaplashishi, ba'zan e'tirozlar bildirishi mumkin. Tobe shaxsi bolalarni rag'batlantirish maqsadga muvofiqdir, shuning uchun ham ularni

maqtab turish, gupirayotganda ko‘zlar, yuz ifodalari bilan ularni ruhan qo‘llab turish kerak. Biror qarorga kelish kerak bo‘lib qolsa, bu shaxs qarorni yaxshisi siz qabul qilishingizni xohlaydi. Chunki javobgarlikni bo‘yniga olishni istamaydi.

Yuqorida keltirilgan tiplarni kuzatar ekanmiz, barchasida ijobiy va salbiy, noqulay va qulay sifatlar borligini ko‘ramiz. Xayotda ko‘pincha sof u yoki bu tip vakili uchramaydi, lekin u yoki bu vaziyatlarda takrorlanadigan fazilatlariga qarab odamlarni tiplarga ajratamiz. Bundan tashqari, bir marta ko‘rishda odam haqida xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Uni aniq tavsiflash uchun turli sharoitlarda bir necha marotaba kuzatish lozim.

1.3. Muloqotning psixologik tizimi.

Muloqot shaxslararo munosabatlarning shunday ko‘rinishidirki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan o‘zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o‘zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta’sir o‘tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, bir-birlarini tushunadilar.

Shuning uchun muloqot ijtimoiy psixologik hodisa sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida ishtiroq etib, hamqorlik faoliyatining moddiy, ma’naviy, madaniy, emotsional, motivatsion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlarni maqsadga muvofiq ravishda qondirish muloqot maromiga bog‘liq bo‘lib. shaxslararo munosabat, barkamol avlod, komil inson g‘oyalarini anglatadi. Muloqot muvaffaqiyatining negizi shaxsning ruhiy dunyosi, ehtiyojlari motivatsiyasi, harakter hislati, individual-tipologik xususiyati, qobiliyati, e’tiqodi kabi insonning fazilatlari, sifatleri namoyon bo‘lishi, rivojlanishi hisoblanadi. Muloqot jarayonida muloqotdoshlarning tasavvurlari, qiziqishlari, his-tuyg‘ulari, ko‘nikmalari, voqelik natijasini oldindan sezish, payqash, ta’sir o‘tkazish uslubi tarkib topishi mumkin.

Muloqot tashqi ta’sirlar, namunalar asosida o‘zini-o‘zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ruyobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi.

Barkamol insonlarning muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish o‘quvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyati ham, boshqa odamlar tomonidan taqlid qilinadi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi. Odamlar o‘rtasidagi shaxslararo munosabat jarayonida g‘ayritabiiy ijtimoiy holat yoki hodisaga ongli tayanish - o‘zini - o‘zi mukammallashtirish, o‘zini - o‘zi ruyobga chiqarish, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘zini - o‘zi baholash, o‘ziga - o‘zi buyruq berish shaxsning ruhiy dunyosida muhim kamolot bosqichidir. Shuning uchun ichki va tashqi taqlidning tushunish hamda ularni bosqichma-bosqich egallab borish - bo‘lg‘usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishining garovidir.

Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi - bu o'zini - o'zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o'ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto'g'ri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samaralar sari yetaklaydi:

1) hamqorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish.

2) muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay pozitsiyasini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.

3) insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to'g'risidagi axborotni egallashga oid maxsus mashg'ulotlarni uyushtirish.

4) shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo'ljallangan ishbilarmonlik o'yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

L. S. Vigotskiy, A. N. Leontev, A.R. Luriya, D.B.Elkonin, A. V. Zaporozets, M. I.Lisina tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri - bu muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V.Zaporozets va M. I. Lisinalar tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlar tarzida rivojlanib boradi:

1) e'tibor va hayrixohlikka ehtiyoj paydo bo'ladi;

2) kattalar bilan hamqorlik qilish ehtiyoji tug'iladi;

3) avvalgi barcha ehtiyojlarga kattalar tomonidan hurmat qilish ehtiyoji tug'iladi;

4) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdagilar bilan o'zaro bir-birini tushunish ehtiyoji vujudga keladi.

Xullas, inson o'zini idora qilish, turli vaziyatlarda o'zini tutish fazilatlarini o'zlashtirilayotgan davrda ba'zi bir qoidalarga rioya qilsa, hamqorlik fazilatida ma'lum yutuqlarga erishadi:

1. Ijtimoiy hodisalarning tashqi voqe bo'lishi nafaqat ichki ruhiy holat va uning mazmunini aks ettiribgina qolmaydi, balki ikki tomonlama aloqa tufayli

mazkur jarayon yuzaga keladi.

2. Ixtiyoriy, faol diqqatning tashqi ob'ektlarga yo'naltirilganligi va to'planganligi turli omillar ta'siri tufayli samaradorlik darajasini pasaytiradi, asabiy holat ishchanlikni kamaytirib muloqot maromiga putur yetkazadi.

3. Inson o'zini erkin, ozod, bemaol his etish hislatini o'zlashtirish uchun jismoniy keskinlik, asabiy taranglik, aqliy zo'riqish orqali ko'zlangan maqsadiga yetishi mumkin

(E.G'oziev. Muomala psixologiyasi. T.2001 23-bet).

Yuqoridagi qoidalarga barcha talabalar rioya qilib, gavgdalarini to'g'ri tutish, muammoli vaziyatlarga va muloqot maqsadiga, maromiga mutanosib tushadigan hodisalar, holatlar, sharoitlar, muayyan muhit, mazmunli harakatlar, imo - ishoralar, mimika, pantomimika ustida ishtiyoq bilan shug'ullansalar, yengil tabassum, iliq, miyig'ida kulish, chiroyli yurish kabi mashqlarni amalga oshirsalar, noverbal nutq yordami bilan shaxslararo munosabatni to'g'ri yo'lga qo'yish imkoniyatiga erishadilar. Atrofdagilarda yoqimli taassurot qoldirish, ularda mehr - muhabbat tuyg'usini o'yg'otish muloqotdosh tanlashga imkon tug'diradi. Jismoniy va ma'naviy jihatdan erkinlikka erishish o'ziga ishonch tuyg'usini yuzaga keltirsa, mustaqillik muloqotda teng huquqli sherik bo'lishga shart-sharoit yaratadi.

Birinchi toifadagi muloqot (faoliyatdan ko'zlangan maqsadga erishish uchun axborot ayirboshlash, kommunikatsiya o'rnatish) bilan bir qatorda ikkinchi toifadagi muloqotning (o'zligingni boshqa kishilarda davom ettirish) mavjudligi har bir kishining ikkinchisiga ko'rsatadigan ta'siriga e'tiborni jalb qiladi. Ta'lim - bu avvalo axborot jarayonidir. O'qituvchi o'quvchiga bilimlarni ma'lum qiladi va o'z navbatida teskari aloqa tarzida undan ma'lum qilingan bilimlar qanday o'zlashtirilganligi haqida tasavvur hosil qiladigan axborot oladi. O'zaro birgalikdagi harakat mohiyatlar darajasida amalga oshiriladi.

Pedagog tarbiya vazifalarini amalga oshirarkan, o'quvchilarga ko'rsatadigan ta'sir tarbiyalanuvchilar ko'rib, eshitib va bajarib borayotgan mazmunlarning

muayyan darajada o'zgarishini taqozo qiladi. Pedagog ko'rsatadigan ta'sirning turlicha samara kasb etishi zamirida uning shaxsiyatiga oid xususiyatlar, uning o'zini davom ettirish, o'zining shaxsiyatiga oid mazmunlarni yoshlarga o'tkaza bilish qobiliyati, uning pedagogik munosabati harakteri va samaradorligi aksi mujassamlashgandir.

Muloqotga kirishuvchilarning o'zaro yaqinligi bilan, bir-birlari bilan muloqotdan qoniqish hosil qilganligining yuksak darajasi, javob tariqasidagi his-tuyg'ular va afzallikning o'zaro taxmin qilinishi bilan belgilanadigan o'zaro munosabatlar va o'zaro birgalikdagi harakatning barqaror individual-tanlash tizimi sifatidagi do'stlik kishilar munosabatining alohida shakli sifatida yuz beradi. Do'stlikning rivojlanib borishi uning o'zaro hamjihatlikning zarurligini, oshqoralik va ochiqlikni, ishonchni, o'zaro faol yordamlashuvni, samimiylikni va his-tuyg'ularning beg'arazligini qaror toptiruvchi yozilmagan qonun - qoidaga amal qilishini taqozo etadi.

Do'stona muloqot o'rnatish va do'st tutinish muammosi o'spirinlik yoshida ayniqsa dolzarb masalaga aylanadi. Pedagoglarning kuzatishlari, o'spirinlarning sir saqlanadigan kundaliklari, ularning "Do'stlik va muhabbat to'g'risida"gi mavzularda o'tkaziladigan suhbatlarga qiziqishlari ana shundan dalolat beradi. Do'st orttirishga bo'lgan ehtiyoj o'spirinlik yoshi uchun xos xususiyat hisoblanadi. O'spirin odatda do'stona muloqotning ulchovi haqida yetarli darajada aniq - ravshan tasavvurga ega bo'lmaydi, bu yoshda u ko'proq intiladigan alohida juftlashgan holda do'stlashuvdan ko'ra ko'proq o'z tengdoshlari bilan kengroq ma'nodagi muloqotga kirishishni taqozo etadigan o'rtoqlik ancha keng tarqalgan bo'ladi.

O'zaro do'stona yaqinlik belgisiga ko'ra birlashgan ulfatlar, tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, muayyan bir kasb atrofida guruhlar ajrala boshlaydi. Do'stlik muloqoti o'rnatgan va ta'riflangan bo'g'inlarda, eksperimentlar natijasida olingan ma'lumotlarning guvohlik berishicha, yoshlarning o'zlari qaysi kasbni egallash niyatida ekanliklarini aniqlagan, bo'lg'usi kasb haqidagi, uning imkoniyatlari va

istiqbollari, unga tayyorlanish yo‘llari kabilar haqidagi axborot bilan bir-birlarini boyitgan holda olib boradigan yashirin kasb tanlash ishi yuz beradi. O‘spirinlarda juftlashgan tarzdagi do‘stona muloqot andozasi, garchi faqat shunday bo‘lmasa ham, ko‘pincha jinslar o‘rtasida yuz beradigan ishqiy munosabatlarda, ilk yoshlik muhabbatining dastlabki ko‘rinishlarida ko‘rtak yozadi.

2.bob. Sotsial nazorat va ijtimoiy qoidalar

2.1. Fikrlar xilma-xilligining sabablar.

Insoniy munosabatlarning har qanday tizimida ham fikrlarning rang-barang bo'lishi va ular o'rtasida farqlarning bo'lishi muqarrar holdir. Fikrlar rang-barangligining asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Alohida shaxs va jamoatchilik manfaatlarining mos kelmasligi;
2. Ayrim alohida jamoa a'zolari xatti-harakatlarining ijtimoiy, guruhiy nomalarga zid kelishi (tartibsizlik, intizomning buzilishi, ishning samarasizligi va hokazolar);
3. Jamoa a'zolari qarashlaridagi nomuvofiqliklar;
4. Ishni tashkil etish shva mehnatga munosabatdagi farqlar;
5. Ishchi xodimlar o'rtasidagi vazifalarning to'g'ri taqsimlanmaganligi.

Nizo – muloqot ishtirokchilarining har biri uchun muhim bo'lgan muammoni hal etish jarayonida ular o'rtasida vujudga kelgan qarama-qarshilik va kurashning keskin kuchayib ketish jarayonidir. Nizoning asosi muloqot ishtirokchilarining biri ikkinchisining o'z ehtiyojlarini qondirish, o'z maqsadlariga erishish jarayoniga to'sqinlik qila boshlashi tufayli poaydo bo'ladi va bu nizoli vaziyat sifatida qaraladi. Muloqot ishtirokchilarining Ushbu nizoli vaziyatda vujudga kelgan to'siqni bartaraf etish uchun amalga oshiruvchi harakatlari nizoni, ya'ni ochiqdan ochiq qarshi kurashni keltirib chiqaradi. Demak nizoning formulasini quyidagicha ifodalash mumkin: **Muammo + nizoli vaziyat + nizo.**

Nizoli vaziyatlarning bir nechta turlari mavjud:

- 1) Ta'sirning yo'nalishiga ko'ra: vertikal va gorizontal nizolar;
- 2) Nizoni hal qilish usuliga ko'ra: antogonistik va kelishuvga olib keladigan nizolar – kompromiss;
- 3) Namoyon bo'lish darajasiga ko'ra: ochiq, yashirin, potensial, asosli.
- 4) Ishtirokchilar soniga ko'ra: shaxsiy, shaxslararo, guruhlararo;
- 5) Kelib chiqish tabiatiga ko'ra: milliy, etnik, millatlararo, ishlab chiqarish, hissiy-emotsional.

Konstruktiv nizolar - munosabatlarning yaxshilanishi, muammoning ikala tomon uchun ijobiy hal etilishiga olib keladi. Destruktiv nizolar – munosabatlarning yomonlashuviga, muammoning hal etilmasligiga olib keladi.

Davom etishiga ko‘ra uzoq muddatli - ro‘yobga chiqish bosqichi cho‘zilib ketgan nizo, qisqa muddatli – ro‘yobga chiqish bosqichi uzoq davom etmaydigan nizo turlari farqlanadi. Psixologlar muloqotdagi nizolarni oldini olish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish lozimligini uqtirib o‘tadilar:

- tanqid va ayblovni ko‘p ishlatmaslik, ko‘p noliyvermaslik;
- fikrni qisqaroq gaplarda ifodalash;
- e‘tiborli tinglovchi bo‘lish;
- ovozning imkon qadar samimiy jaranglashini ta‘minlash;
- qat‘iy fikr bildirishdan saqlanish;
- buyruq ohangidan voz kechish;
- «hech qachon» va «har doim» so‘zlaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish;
- ijobiy emotsiyalarni saqlab turish, ko‘proq tabassum qilish.

Nizoli holatlarda shaxs egallagan pozitsiyasiga ko‘ra toifalarga ajratiladi:

- 1) Namoyishkorona toifadagi nizoli shaxs;
- 2) Rigid toifadagi nizoli shaxs;
- 3) Boshqarib bo‘lmaydigan toifadagi nizoli shaxs;
- 4) Aniqlikni talab etadigan toifadagi nizoli shaxs;
- 5) Nizosiz toifadagi nizoli shaxs;
- 6) Maqsadga yo‘naltirilgan toifadagi nizoli shaxs.

Rahbar faoliyatidagi eng muammoli masalalardan biri-bu xodimlar bilan bo‘ladigan ziddiyat, nizolar.

Shaxsda tug‘iladigan ziddiyat maqsadga to‘g‘ri yo‘naltirilgan bo‘lsa o‘z samarasini beradi. Maqsadli ziddiyat bir necha bosqichdan iborat bo‘ladi. Birinchi bosqichda ziddiyat shaxsiy maqsad asosida kelib chiqadi. Ikkinchi bosqichda ziddiyatli vaziyatning maqsadini tuzatgan holda ayrim qismlari tahlil qilinadi. Ziddiyatning keltirib chiqaruvchi o‘z tashkilotchisi bo‘ladi. Ziddiyatda maqsadga

yo'naltirilgan xatti-harakatlar tug'iladi. Maqsad ishonchli bo'lmasa u kuchini yo'qotadi. Turli maqsadlar o'zining yutug'i uchun turli usullarni talab qiladi. Shuningdek, ishonchli bo'lmagan maqsad — «deklarativ maqsad»dir. Masalan, bir narsani talab qilib boshqa narsa ko'zda tutiladi. Shaxs nizoni keltirib chiqarayotgan paytda o'zini xuddi boshqalarning manfaatini ko'zlab harakat qilayotgandek ko'rsatadi, aslida esa o'z manfaatini ko'zlaydi. Nizodagi xatti-harakatlar faqat maqsadga qaratilgan bo'lmasdan, realistik tabiatga ega bo'ladi. Intellect darajasi, ishlab chiqarish muammosi bo'yicha bilim ayni paytdagi ziddiyatni hal qilish uchun vaziyatni to'g'ri ko'rish kafolatini bermaydi. Shaxs ziddiyatga borayotganida anglanmagan motivlar asosida xatti-harakat qilishi mumkin. Demak, shaxs nizo tug'ilayotgan paytda o'zining aniq maqsadiga va anglangan motivlariga ega bo'lishi zarur. Ziddiyatlarni bartaraf qilish uchun o'z shaxsiy manfaatinigina ko'zlamasdan, butun jamoa manfaatini ko'zlab ish olib borish lozim. Ideal «men»imiz hech qachon real «men»imiz bilan to'g'ri kelavermaydi.

Ziddiyatli vaziyatning obektiv rejasini idrok qilish. Ziddiyatni bartaraf qilayotganda chegarani his qila bilish kerak. Ya'ni «kutish» va «harakat qilish» orasidagi chegarani aniqlash ko'nikmasi bo'lishi zarur.

O'z-o'ziga baho berishning past bo'lishi passivlikka olib keladi: aslida u voqealarga faol yondasha olishi, atrofdagilar kutayotgan xulq-atvorni namoyon qila bilishi zarur. Opponent uchun o'ziga yuqori baho berish ziddiyatli vaziyatni to'g'ri idrok qila olmaslikka, tez va oson g'alabaga erishishni kutishga olib kelsa, o'ziga past baho berish vaziyatning murakkabligini kuchaytirib idrok qilish, muvaffaqiyatga erishishga ishonmaslik, ziddiyatdan kelib chiqadigan salbiy oqibatdan himoyalanihga olib keladi.

Ish usullarini tanlash. O'ziga yuqori baho beradigan opponent ziddiyatli vaziyatda ishonch bilan, qat'iy turib o'zining nuqtayi nazarini bayon qiladi. O'ziga past baho beradigan opponent esa o'zini himoya qilishga harakat qiladi. O'ziga yuqori baho beradigan opponent egoistik (lavozimidan ajrab qolishdan qo'rqish, moddiy manfaatdorlik, o'zining xavfsizligini saqlab qolish) motivlarini asosiy

o'ringa qo'ygan holda harakat qiladi. Uning usullari maqsadga emas, opponent shaxsiga qarshi yo'naltirilgan bo'ladi.

Kelishuvchanlik munosabati. Bu so'zning ma'nosi o'zaro chekinishga rozi bo'lish deganidir. Ziddiyatning maqsadiga kelishuvchanlik yo'li bilan qisman erishish mumkin. Maqsadga erishish imkoniyatlari to'la yo'qolgan bo'lsa kelishuvchanlik vujudga keladi.

Omadsizlikka munosabat. Ziddiyatni bartaraf qilayotganda o'ziga past baho beradigan opponentda bunday holat sodir bo'lishi mumkin. Omadsizlikka konstruktiv munosabat xatolarni tan olish, o'zining kuchsiz tomonlarini his qilishda ko'rinadi. O'ziga yuqori baho beradigan opponent yutqazsa ham aybni boshqa qatnashchilarga qo'yadi. Past baho beradigan opponent esa o'zidan ayb qidiradi. Nizoga borayotganda nima uchun bu nizo kelib chiqqanligi, oqibati nimalarga olib kelishi, qanday yutuqlarga erishish mumkinligini o'ylab harakat qilish joiz.

2. Tashkillashtirilgan ziddiyatlar

Tashkilotlardagi ziddiyatlar turli hollarda vujudga kelishi mumkin. Masalan, xodimlar uyidan kayfiyatlari buzilib kelsa, boshqa hamkasbi bilan ham nizoga borib qolishi tabiiy hoi. Ishga mas'uliyatsizlik bilan yondashilsa ham ziddiyat kelib chiqishi shubhasiz. Shaxslararo ziddiyatlar vujudga kelishi bilanoq bartaraf qilinmasa u jamoaning barcha a'zolariga ta'sir qilishi mumkin. Nizoning bir turi faqat tashkilotgagina taalluqli bo'ladi. Ziddiyatlarning vazifasi tadqiqotchilarning diqqat markazida turadi. Hozirgi kunda kishilar o'rtasida umumiy ziddiyatlar kelib chiqishining oldini olishga harakat qilish lozim. Chunki dunyoning bir qancha mamlakatlarida turli buzg'unchi g'oyalar asosida aqidaparastlar, ekstremistlar kishilar o'rtasida adovat urug'ini sochishga harakat qilmoqdalar. Har bir tashkilotdagi rahbar xodimlarining turli buzg'unchi g'oyalarga ishonmasligiga harakat qilishi lozim.

Tashkilotdagi faoliyatni chumolilar, asalarilar harakatiga o'xshatish mumkin. Lekin inson ongli mavjudot bo'lgani uchun har bir qiladigan harakatini

avaldan o‘ylab, aniq bir maqsad asosida faollik ko‘rsatadi. Ziddiyatlar butunlay yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki u davom etishi, shaxslararo munosabatlarga aylanib ketishi mumkin. Tashkilotda ichki ziddiyatlarning kelib chiqishiga avalo rahbar sababchi bo‘ladi. U har bir xodimni hurmat qilishi, barcha xodimlarni teng ko‘rishi, to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi zarur. Rahbar demokratik usulda jamoani boshqara olsa, bu jamoada ziddiyatlar kam paydo bo‘ladi. Xodimlar o‘rtasidagi chaqimchilik, bir xabarni boshqacha talqinda yetkazish, vahima tarqatish orqali ham ziddiyatlar kelib chiqishi mumkin. Ziddiyat — bu faoliyat. Kishilar ziddiyat orqali faoliyatda bo‘ladilar. (nutq orqali, verbal va noverbal muloqot orqali). Barcha tug‘iladigan ziddiyatlarning oldini olish, bartaraf uchun rahbarda tashkilotchilik qobiliyati yaxshi shakllangan bo‘lishi kerak.

Nizo bartaraf etilmay munosabatlar butunlay tugallansa, buni faqat pozitsiya nuqtai nazarlarning bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi tufayli ro‘y bergan xodisa deb hisoblash lozim. Demak biz o‘zaro muloqotda nizolarning paydo bo‘lmasligiga harakat qilmog‘imiz, suhbatdoshimizni to‘g‘ri tushunmog‘imiz kerak. Shundagina atrofdegilar bilan bo‘ladigan muloqotimiz muvaffaqiyatli amalga oshadi.

Kishi o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy hisoblangan munosabatlar sistemasiga kirgan, odamlar bilan o‘zaro birgalikda harakat qilgan va munosabatda bo‘lgan holda o‘zini atrof-muhitdan alohida ajratib ko‘rsatadi, o‘zining jismoniy va psixik holati, harakatlari va jarayonlarning sub`ekti sifatida his yetadi, o‘zi uchun "boshqalarga" qarshi turgan va ayni chog‘da ular bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan "MEN" sifatida namoyon bo‘ladi.

I.S.Kon "Men"ning kashf yetilishi" deb juda o‘rinli atagan shakllanish jarayonining natijasi hisoblanadi. Bu jarayon bola tug‘ilganidan to o‘spirinlik, yoshlik davrigacha davom yetadi. O‘spirinlik va yoshlik davrlarida ijtimoiy hayotga va mehnat faoliyatiga faol qo‘shilib ketish natijasida o‘ziga ijtimoiy-axloqiy jihatdan baho berishning kengaytirilgan sistemasi shakllana boshlaydi, o‘zini anglab yetishi tugallanadi va "Men"ning siymosi asosan tarkib topadi.

O'ziga-o'zi baho berish shaxsning intilishlari darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Intilishlarning darajasi shaxs o'ziga o'zi beradigan bahoning individ o'z oldiga qo'yadigan maqsadlarning qiyinchiliklari darajasida namoyon bo'ladigan kutilgan darajasi ("Men" siymolarining darajasi) dir.

SHaxsning psixologik muxofazasi. Shaxsning o'zini anglashi o'ziga o'zi baho berishi mexanizmini qo'llagan

2.2. O‘zaro tushunish qonuni

Muloqot kishilarning hamqorlikdagi faoliyati ehtiyojlari asosida tug‘iladigan ular o‘rtasidagi aloqa rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Muloqot hamqorlikdagi faoliyat qatnashchilari o‘rtasida axborot almashinishni o‘z ichiga oladi, bu muloqotning kommunikativ tomonida ifodalanadi. Odamlar bir-biri bilan munosabatga kirishishda tildan muomala vositasi sifatida foydalanadilar. Muloqotning ikkinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning o‘zaro ta‘siridir. Bunda faqat so‘zlar emas, balki harakat va holatlar ham almashinadi. Masalan, sotuvchi bilan haridor o‘rtasida biror so‘z aytmadan muomalaga kirishish mumkin. Muloqotning uchinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning bir-birini idrok qilishidir. Muomalaga kirishuvchilarning bir-birini to‘g‘ri tushunishi muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, muloqotning shartli uch tomonini ajratish mumkin: kommunikativ axborot berish, interaktiv o‘zaro ta‘sir va perseptiv o‘zaro idrok qilish. Muloqotning bu uch tomonining birligi muomalaga kirishuvchi kishilarning o‘zaro munosabati va hamqorlikdagi faoliyatining tashkil etish usuli sifatida namoyon bo‘ladi. Muloqotning mazmuni- axborot almashish, o‘qituvchi tomonidan turli kommunikativ vositalar yordamida o‘quvchilar bilan o‘zaro tushunish va o‘zaro munosabatlarni tashkil etishdir. Pedagoglarning tarbiyaviy va didaktik vazifalarni o‘qituvchi hamda o‘quvchilar jamoasi o‘rtasida munosabatlarni ta‘minlamay turib amalga oshirib bo‘lmaydi.

Muloqot ikki va undan ortiq kishilar o‘rtasida bilish yoki baholash tarzidagi axborot almashishda namoyon bo‘luvchi o‘zaro ta‘siridir.

Muloqotning o‘zaro birgalikda harakat qilish va faoliyat ko‘rsatish jarayonida odamlarni birlashtiradigan umumiy narsa ishlab chiqarish tarzida tushunilishi ana shu umumiy narsa avvalo muloqot vositasi sifatidagi tildan iborat ekanligini bildiradi. Til muloqotga kirishuvchilar o‘rtasida aloqa bog‘lanishini ta‘minlaydi. Uni bu maqsad uchun tanlangan so‘zlar mohiyatiga ko‘ra kodlashtirgan holda axborotni ma‘lum qilayotgan kishi ham, bu mohiyatning kodini ochgan, ya‘ni uning ma‘nosini oshkor etgan va ana shu axborot asosida o‘z

xulq - atvorini o'zgartirgan holda bu axborotni qabul qilayotgan kishi ham tushunadi.

A.V. Petrovskiy fikricha, axborotni boshqa kishiga yo'llayotgan kishi (kommunikator) va uni qabul qilayotgan kishi (retsipient) munosabat va birgalikdagi faoliyat maqsadlariga erishish uchun mohiyatlarni kodlashtirish va kodini ochishning bitta yagona tizimidan foydalanishlari, ya'ni bitta tilda so'zlashishlari kerak. Mohiyat - belgining tevarak - atrofdagi voqelikni bilishni ifoda etadigan qism sifatidagi mazmunga ega bo'lgan jihatidir. Qurol odamlarning mehnat faoliyatini ifodalagani singari belgilar ham ularning bilish faoliyati va munosabatini namoyon qiladi.

So'zlar belgilari tizimi hayot kechirish, ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va uzatish vositasi sifatidagi tilni tarkib toptiradi. (Umumiy psixologiya.140-bet).Til yordamida muloqotga kirishish tufayli borliqning alohida bir kishining miyasidagi in'ikosi boshqa odamlarning miyasida aks etayotgani bilan doimiy ravishda to'ldirilib turadi - o'y- fikrlarini ayirboshlash, axborot berish ro'y beradi. O'qituvchi u yoki bu so'zni ishlatganda uning o'zi ham, uning tinglovchilari ham yolg'iz o'sha bitta hodisani nazarda tutishadi va ularda anglashilmovchilik yuz bermaydi. Mohiyatlar tizimi kishining bo'tun hayoti davomida rivojlanib va boyib boradi. Uni sobitqadamlik bilan shakllantirish o'rta ta'limning ham, oliy ta'limning ham markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Demak, til bilan muloqot o'zviy bog'liq holda rivojlanib boradi.

Pedagogik muloqot-pedagogik ta'sirning ajralmas sifatidir. Bu o'qituvchi va o'quvchining ta'lim-tarbiya jarayonidagi professional muloqoti bo'lib, unda ma'lumot almashinadi va o'quvchilarga o'quv-tarbiyaviy ta'sir o'tkaziladi. Bunda ikki yoqlama muloqot yuzaga kelishi lozim. Uning asosi sifatida o'zaro hurmat va ishonch xizmat qiladi. Pedagog o'quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ulardan hurmat kutadi. O'quvchilar ham o'qituvchidan hurmat va ishonchni talab etadilar. Bu pedagogik ta'sirning samarali yo'li bo'lib, tajribali pedagoglar bolani o'z-o'zini hurmatlashga asoslangan holda munosabatlarni tashkil etadilar va shu

orqali o‘zaro munosabatlarni amalga oshiradilar. Muloqotning o‘ziga xos 3 ta darajalari mavjud. Bular:

- makro darajada katta-insonlar bilan muloqot qilish barcha odob-axloq normalariga suyangan holda amalga oshiriladi.
- Mezo darajada o‘rta-muloqot ma’lum mavzu asosida kechadi, masalan, askiyada ma’lum mavzudan chekinmaslik.
- Mikro daraja kichik -muloqotning oddiy shakllari, savol-javob tariqasida yuz beradi.

Muloqotning turlari:

- shaxslararo (inson-inson),
- shaxsiy-guruhiy (guruh-guruh),
- ommaviy kommunikatsiya (radio, televidenie, ro‘znomalar va jurnallar) kabi turlari mavjud.

Yoshlarni nafaqat jismonan baquvvat, balki ma’naviy boy, yangi davr talabiga javob beradigan, muloqot jarayonida erkin fikr yuritadigan qilib tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb muammolaridandir. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, “qadrlar tayyorlash milliy dasturi”da shaxsning erkinligi, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, muomala madaniyatini tarkib toptirishga birlamchi e’tibor qaratilgan Shaxs muloqotini shakllanishida uning tarbiyalanganlik darajasi muhim o‘rin egallaydi. Masalan, shaxsga kuchli ta’sir etadigan so‘zlarni qo‘llasangiz ham u qabul qilmasligi, sizning bergan ko‘rsatmalaringizga amal qilmasligi mumkin. Chunki u yoshligidan muomala madaniyatini egallashi kerak. Muloqotning shakllanishida maqsad to‘g‘ri qo‘yilishi lozim. Muloqot ta’lim-tarbiya jarayonida, turli vaziyatlarda rivojlanadi. Masalan, oilada, mahallada, jamoada, guruhda. Agar oilada kattalar bir-birlariga qo‘pol munosabatda bo‘lsalar, bola ham ularga taqlid qilib atrofdagilar bilan nizolarga borishi mumkin. Biz oldimizga har tomonlama rivojlangan, yetuk, komil shaxsni tarbiyalashni qo‘yganmiz. Prezidentimiz doimo yoshlarni erkin fikrlaydigan qilib tarbiyalashni uqtiradilar. Demak, muloqot fikrlash bilan o‘zviy bog‘liq holda shakllanadi.

2.3. Muloqotda teskari aloqa va muloqot treningi

Muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun u albatta qayta aloqaga ega bo'lishi — sub'ekt o'zaro ta'sir natijalari haqida axborot olishi kerak. Kommunikator o'zi uzatgan axborotni retsipient qanday qabul qilishini va qanday munosabatda bo'layotganligini qayta axborot ma'lumotlariga asoslanib bilib oladi. Muloqotda suhbatdoshni yoki tinglovchini idrok etish bir-birini tushunishning asosiy shartidir. Agar o'qituvchi o'quvchilar uni qanday idrok etayotganligini, tushunayotganligini anglay olmasa pedagogik muloqot yaxshi bo'lmaydi. Ayniqsa, ma'ruza o'tayotganda bu juda muhimdir. Radio-televideniya so'zlayotgan kishi teskari aloqani ololmay qiynaladi, ba'zan fikrlari chalkashib ketishi, odatdagi ohang yo'qolishi mumkin. Agar hamsuhbatni ko'rish orqali idrok etish imkoniyati bo'lmasa, qo'l barmoqlari va yuz harakati orqali bo'ladigan imo-ishoralar kambag'allashib, harakatlar erkinligini yo'qotib qo'yadi. Hamsuhbatning fe'l-atvorini idrok etish chog'ida olinadigan signallar shaxsning keyingi harakatlari va fikrlarini to'g'rilab borish uchun asos bo'ladi. Umuman hamsuhbatni yoki tinglovchini idrok etish muloqot vaqtida o'zaro hamjihatlikka erishishning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. O'qituvchining ma'ruza vaqtida teskari aloqaga ega bo'lishi laboratoriya va amaliy mashg'ulotlardagiga qaraganda qiyin. Demak, shaxslararo idrok etish jarayonida teskari aloqa xabar beruvchi vazifani va o'zini o'zi boshqarish vazifasini bajaradi. Kishining jismiy qiyofasidagi ayrim belgilar, o'zini tutishi, qo'llari va gavdasini qimirlatib imo-ishora qilishi, so'zlash ohangi axborot tashuvchilar sifatida xizmat qiladi.

Trening — inglizcha «maxsus rejim, mashq» degan ma'noni bildiradi. Kishilarda muloqot malakalari tasodifan yoki ta'lim mahsuli sifatida shakllanib boradi. Masalan, o'quvchilarni to'liq mufassal va aniq javob berishga, o'zidan kattaga muomala qilganda o'rnidan turishga o'rgatib boriladi.

Ijtimoiy-psixologik trening ikki xil vazifani ta'minlaydi:

1-muloqot va pedagogik muomala qonuniyatlarini o'rganish.

2-pedagogik kommunikatsiya texnologiyasini egallash, kasbiy pedagogik muomala, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni ta'minlaydi.

Psixologik-pedagogik treningning bir shakli ish o'yinlaridir. Kishilarda samarali muloqot o'rnatish malakalari tasodifiy ravishda tarkib topadi yoki ta'limning yordamchi mahsuli sifatida yuz beradi (1-sinf o'quvchisi to'laqonli javob qaytarishga, kattalar unga murojaat qilayotganda o'rnidan turishga va boshqalarga o'rgatiladi).

Ijtimoiy-psixologik trening muammosining nazariy va amaliy tomonlari ajratiladi. Amaliy tomoni o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqot ko'nikmalari, malakalarini egallashga va ularni chiniqtirishga qaratilgan mashqlar: darsning barcha bosqichlarida izchillik bilan harakat qilish malakalarini, pedagogik ish davomida mushaklarning zo'riqishini so'ndirish malakalarini, ixtiyoriy diqqatni taqsimlash malakasini shakllantirishga, kuzatuvchanlikni namoyon qilishga qaratilgan mashqlarni taqozo etadi. Magnitofon yozuvi yordamida teskari aloqadan foydalangan holda o'tkaziladigan nutq texnikasi va madaniyatiga doir mashqlar, tobora rasm bo'lib borayotgan videomagnitofon texnikasi bor joylarda o'quvchilar bilan muloqotga kirishilgan sharoitlarda adekvat (aynan o'xshash) mimika va pantomimikaning rivojlantirilishini ta'minlaydigan mashqlar alohida ahamiyatga egadir. O'zining magnitofon lentasiga yozilgan ovozini tinglayotgan va buning ustiga yana o'zini videomagnitofon ekranida ko'rayotgan kishining nutqini, mimikasini va pantomimikasini to'g'rilash uchun qulay imkoniyatlarga ega bo'lishi, o'zini «tashqaridan turib» xuddi boshqa kishini idrok qilganday idrok etishi ma'lum.

Psixologik-pedagogik trening shakllaridan yana bir tipik vaziyat-larni, masalan, imtihonlarni modellashtiruvchi amaliy o'yinlardir. Muloqot treningi, ya'ni muloqotni mashq qilish pedagogik ta'lim uchun juda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Muloqot shaxslararo munosabatlarning shunday ko'rinishidirki, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan o'zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar,

o‘zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta’sir o‘tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, bir-birlarini tushunadilar.

Shuning uchun muloqot ijtimoiy psixologik hodisa sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida ishtiroq etib, hamqorlik faoliyatining moddiy, ma’naviy, madaniy, emotsional, motivatsion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlarni maqsadga muvofiq ravishda qondirish muloqot maromiga bog‘liq bo‘lib. shaxslararo munosabat, barkamol avlod, komil inson g‘oyalarini anglatadi. Muloqot muvaffaqiyatining negizi shaxsning ruhiy dunyosi, ehtiyojlari motivatsiyasi, harakter hislati, individual-tipologik xususiyati, qobiliyati, e’tiqodi kabi insonning fazilatlarini, sifatlarini namoyon bo‘lishi, rivojlanishi hisoblanadi. Muloqot jarayonida muloqotdoshlarning tasavvurlari, qiziqishlari, his-tuyg‘ulari, ko‘nikmalari, voqelik natijasini oldindan sezish, payqash, ta’sir o‘tkazish uslubi tarkib topishi mumkin.

Kasbiy-pedagogik muloqotning 5 ta bosqichi bor. Bular:

1. Muloqot jarayonida mo‘ljallanish. Bu bosqichda pedagog muloqotining anglanganligi yuzaga chiqadi. Shuningdek, muloqot uslubini yangi kommunikativ faoliyat sharoitida aniqlash ham yuzaga chiqadi. Psixolog Sh.A. Amonashvili bolalar maktabga kelmasidan avval ularga xat yozgan. Masalan, «Salom, qadrli.... Men sening o‘qituvchingman. Mening ismim Shalva Aleksandrovich. Maktabga kirayotganing bilan tabriklayman. Umid qilamanki, sen bilan do‘st bo‘lib ketamiz. Sening 35 ta o‘rtog‘ing bo‘ladi. Seni sinfda kutaman». Demak, bu yerda o‘quvchiga mo‘ljallanish ko‘rsatmasi berilyapti.

O‘z ustida ishlashda pedagogik muloqotning quyidagi bosqichlariga e’tiborni qaratish lozim:

- bolada yaxshi taassurot qoldirish uchun tashqi ko‘rinishingizga ahamiyat;
- bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda muloqotning bu bosqichini e’tibordan chetda qoldirmang;
- boshqalar bilan muloqotda keskin burilishga yo‘l qo‘ymang;
- bugungi muloqot ko‘ngildagidek bo‘lmasa, uni tuzatishga harakat qiling;

—darsda qaror qabul qilishda improvizatsiya (vaziyatni yaratish, real hayotda bor narsani ko‘rsatib vaziyatdan chiqish) ga harakat qiling;

—auditoriya bilan ish boshlashdan avval faqat o‘zingizning pedagogik materiallaringiz haqida emas, balki bolaning holati, faoliyatga tayyorligi haqida o‘ylang.

2. Pedagogik faoliyatning muhim jihati — e‘tiborni o‘ziga tortish bo‘lib, bola bilan samarali muloqotni amalga oshirish uchun dars jarayonida bolaning diqqati barqaror bo‘lishi kerak. O‘ziga jalb qilishning quyidagi usullari mavjud:

—verbal muloqotda bo‘lish (nutqiy);

—tanaffus qilish;

—harakatli (doskaga yozish, ko‘rgazmani osish);

—aralash usul (yuqoridagilarni birgalikda qo‘llash).

Darsda ko‘pincha aralash variant usulidan foydalaniladi. Olimlarning fikricha, yuz ifodasi va imo-ishoralar orqali ma‘ruzada 40% axborot beriladi.

3. Obe‘ktning qalbini zabt etish bosqichi pedagogic muloqotni tashkillashtirishda katta ahamiyatga ega. Mohiyati jihatidan bu bosqich kommunikatsiyani o‘ziga xos izlash bosqichidir. Masalan, yangi materialni bayon etishda pedagog bolalarni muloqotga tayyorlab oladi. O‘qituvchining o‘quvchini tushunishi kasbiy-pedagogik muloqotning kaliti hisoblanadi.

4. Pedagogik muloqotning yana bir bosqichi bu verbal muloqot, ya‘ni o‘qituvchining yangi materialni o‘quvchilarga og‘zaki bayon qilib berishidir. Pedagog uchun nutq muloqoti juda muhim.

5. Pedagogik muloqot tizimida pedagogning so‘zi obrazlar qo‘zg‘atuvchisi bo‘lib hisoblanadi. Pedagog bilan tinglovchi o‘rtasidagi o‘zaro harakatda hayajonni uzatishning kommunikativ vositalari muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, pedagogning nutqi jonli, ohanglarga boy, tushunarli, aniq, sodda tilda bo‘lishi kerak. Shunda tinglovchilarning idroki to‘liq, obrazli bo‘ladi.

Kasbiy-muloqot treningi mashqlari tizimi ikki bosqichni o'z ichiga oladi:

a) pedagogik kommunikatsiya elementlarini amaliy egallashga qaratilgan mashqlar; berilgan pedagogik vaziyat asosida muloqotning barcha tizimini egallashga qaratilgan mashqlar. Trening samarali bo'lishi uchun bir nechta nafar pedagog birlashgan holda ish olib borishi lozim. Yosh pedagoglar uchun birlashgan seminar-treninglar tashkil qilish yaxshi natija beradi. Tajribali pedagog rahbarligida treninglar o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. 1-bosqich — hamma uchun yaratilgan sharoitda harakat qilishni o'rganish. Masalan, xayolan auditoriyaga kiting, doskaga sanani yozing, yuring, materiallarni tayyorlang, stolga o'tiring, kitobni yoki jurnalni oching, eshikni yoping, tashqariga chiqing. Bu harakatlarni yana bir marta qaytaring, tezda kirish, tezda chiqishni o'rganing. 2-bosqich — pedagogik faoliyat jarayonida muskullar erkinligini shakllantirish. Qo'llaringizni qimirlating, his qiling, qaerga sizning quvatingiz boryapti; ortiqcha og'irlikni yo'qotishga harakat qiling, barmog'ingizni qattiq ushlang bo'yningizni, keyin yelkangizni bo'sh qo'ying, qo'lingiz erkin harakat qilsin, ko'rsatgich barmog'ingiz esa qattiq tursin, 10 gacha sanab barcha muskullaringizni bo'shatishga harakat qiling, boshingizdan boshlab to oyoq barmoqlaringizgacha. Keyin 5 gacha sanab barcha muskullaringizni yana bo'shatishga harakat qiling. Bosimni, zo'riqishni, ushlab turish va olib tashlash. Bir deb, ushlab turing, ikki deb bo'shating. Barcha a'zolaringizni qo'l, oyoq, barmoq, bo'yin kabi navbatma-navbat bo'shating. Bu mashqlarni yurib bajarish mumkin. Elementar pedagogik harakatlarni bajarish davomida muskullardagi bosimni olib tashlash. Xayolingizda auditoriyaga kiring, stolga yaqinlashing, stolda o'tirib yozing, doskaga yozing, ko'rgazmalarni mustahkamlang ortiqcha zo'riqishni olib tashlang. Auditoriyada hissiy qulaylikka erishish. Auditoriyaga kiring, eshik orqasida tanangizning tetikhgini his qiling, kiring, qulay joyni tanlang, qulay yurishni toping, yuring, qo'lingizni orqangizga qilib yuring, o'zingizni yaxshi his etishga harakat qiling.

Kuzatuvchanlik, diqqatni to‘play olish, ixtiyoriy diqqat ko‘nikmalarini rivojlantirish. Hamkasblaringizning biri bilan pedagog rovida turib so‘zlashing. Tasavur qiling, siz tinglovchisiz: buyruqni eshiting, tik holatda turing, alfavit bo‘yicha familiyada turing, keyin ism bo‘yicha. Endi bir-biringizning sochingizning rangiga qarang. Auditoriyaga kirganda diqqatingizni to‘plash uchun avval bir tinglovchiga e‘tiboringizni qarating, keyin barchaga diqqatingizni qarating. Bu mashq diqqatning barqaror bo‘lishiga yordam beradi.

Muloqotning oddiy ko‘nikmasini rivojlantirish. Xayolingizda auditoriyaga kiring, salomlashing, mimika, pantomimika, qarash bilan tinglovchilar diqqatini o‘zingizga qarating. Tinglovchiga turli Vsirlar orqali (iltimos, talab, ogohlantirish, rag‘batlantirish, yumor, savol, buyruq kabilar) murojaat qiling. Tashabbusni boshqarish (A.A. Leontev bo‘yicha). Siz bir kishi bilan gaplashyapsiz. Siz tinglayapsiz, u gapiryapti, tashabbusni qo‘lingizga olib endi siz gapiring. Darsda oxirgi stolda o‘tiradiganlardan ko‘zingizni uzmang. Pedagogik muloqotni boshqarish. Tasavur qiling, siz guruh rahbarisiz, darsdan so‘ng guruhdagilar bilan metall chiqindilari yig‘ish haqida gaplashing. Guruhdagilar bir-birini xafa qilib qo‘yishdi, siz ular bilan dildan suhbatlashing. Imo-ishoralarni tanlash. Har bir vaziyatda ham imo-ishoralar kerakmi? Guruh a‘zolarini bir juftan qilib bir-biriga qarama-qarshi qilib o‘tirgizib qo‘ying. Bu usul «ko‘zgu» deyiladi. Bittasi ko‘zguga (ko‘ziga) qaraydi. Ikkinchisi «ko‘zgu» rolini o‘ynaydi. «Ko‘zgu» rolidagi kishi barcha harakatlarni takrorlab turadi. Treningning ikkinchi bosqichi — pedagogik muloqot jarayonida yaxlit o‘qitish. Bu guruhdagi mashqlar ikki qismga bo‘linadi:

1. Tipik vaziyatda harakat qilish: kuzatuvchanlik ko‘nikmasini rivojlantirish, vaziyatga o‘ylab baho berish, har qanday pedagogik faktni tahlil qilish, pedagogik faoliyat sharoitida tipik pedagogik vaziyatlar bo‘yicha harakat qilish. O‘qituvchi ishini kuzatishda hamkasbining tinglovchilar bilan qanday usul orqali ish olib borishi ya‘ni uning qanday muloqot turlaridan foydalanishi kuzatiladi. Jumladan, kayfiyati, o‘z hissiyotlarini boshqara olishi, darsda pedagogik hayajonlanishi kabilar.

3 BOB. Empirik taxribalar tashkil etish va natijalar taxlili.

3.1. Tafakkur va muomalani tuzganish usullari va tajriba natijalari taxlili.

Muammoni tuzganish jarayonida biz tekshiriluvchilarni kuzatish metodi yordamida tuzganib, ularning psixologik xolatlari va xususiyatlari xamda yoshga xos bulgan metodikalarni tanlaboldik. Biz respondentlarni muloyiatga kirishi jarayonida, fikrlarini tuziga xos tarzda ifodalashi nuqtai nazardan turli shaxsni tuzganish usullarini tanlab oldik. Jumladan; **Geometrik shakllar yordamida chizilgan odamning rasmi test** Ushbu test «Psixologik diagnostikada grafik usullar» kitobidan olingan. Testni o'tkazishdan kutiladigan maqsad –odamlar o'rtasidagi indivi-dual tipologik farqlarni aniqlash.

Ko'rsatma: Ciz uchburchak, aylana, kvadratlardan foydalangan holda xohishingizga qarab, jami o'n elementdan iborat odam figurasini chizib berishingiz lozim. Geometrik shakllar o'lchami har xil bo'lishi mumkin ularni zaruriyatingizga qarab ishlatasiz. Muhimi - odamni chizishda shu uch elementdan foydalanilsa, bas. Shakllarning umumiy soni o'ntadan oshmasligi kerak. Elementlar oshiqchasini o'chirish, kamini to'ldirishi darkor. Rasmni ko'rsatmaga binoan chizing.

Sinaluvchilarga 10 X10 sm o'lchamli uch dona varaq raqamlangan hamda imzolangan holda tarqatiladi.

N 1 varaqqa birinchi sinov rasmi tushiriladi, undan keyin N2 ., N3. . . ga. Undan so'ng ma'lumotlar qayta ishlanadi. Ko'rsatma buzilgan bo'lsa tarqatma material yaroqsiz bo'lgan deb hisoblanadi.

Ma'lumotlar quyidagi ko'rinishda qayta ishlanadi:

Odamchani tasvirlashda foydalanilgan uchburchak, aylana, kvadratlar soni har bir rasm uchun alohida hisoblanadi va natija uch xonali son bilan ifodalanadi, bunda uchburchak- 100, aylana- 10, kvadrat-1-liklarda bo'ladi.

Masalan, 3-ta uchburchak, 4-ta aylana, 3-ta kvadrat qo'llanilgan bo'lsa, bu - 343 sonini beradi. Ushbu son rasm formulasini tashkil qiladi.

Unga qarab chizayotgan kishilarning o‘ziga mansub bo‘lgan turi aniqlanadi.

Turlar quyidagi jadvalda keltirilayapti

individual-psixologik farqlar tizimi.

901	802	703	604	505	406	307	208	109	
910	811	712	613	514	415	316	217	118	019
	820	721	622	523	424	325	226	127	028
		730	631	532	433	334	235	136	037
			640	541	442	343	244	145	046
				550	451	352	253	154	055
					460	361	262	163	064
						370	271	172	073
							280	181	082
								190	091

1-tur. raxbar - odatda bunday odamlar boshqarish va uyushtirish faoliyatiga moyil bo‘lishadi. Ular jamiyatdagi muhim axlokiy me‘yorlarga tayanishadi, yuqori darajadagi nutqqa ega bo‘lib, hikoyanavislik iqtidori ham yo‘q emas. Ko‘pchilik qatnashadigan, jamoa joylarga yaxshi moslasha olishadi. Boshqalar ustidan hukmronlikni ma‘lum bir chegarada saqlay bilishadi. Odatda yashil rangni tanlaydilar va daraxt testida archani chizishadi.

formulalar - 901, 910, 802, 811, 820, 703, 712, 721, 730, 604, 613, 622, 631, 640.

901, 910, 802, 811, 820- xildagilarda ustivorlik juda kuchli namoen bo‘ladi.

703, 712, 721, 730 - xildagilarda bu xol vaziyatga qarab ro‘y beradi.

604, 613, 622, 631, 640 - bundaylar hukmi nutq ta‘sirida o‘tkaziladi, boshqacha qilib aytganda, bular o‘qituvchilar toifasiga mansub.

Shuni ta‘kidlab o‘tish joiz-ki, ushbu sifatlar namoyon bo‘lishi sinaluvchining psixik taraqqiyoti darajasiga ham bog‘liq bo‘ladi. Yukori darajada rivojlangan individual-psixologik sifatlar yaxshi anglanib, ro‘yobga chiqishi oson bo‘ladi.

Rivojlanishi past dara-jada bo'lsa kasbiy faoliyatda namoyon bo'lmaydi, balki vaziyatga qarab namon bo'ladi. bular barcha ta'riflarga xos.

2-tur. Ma'suliyatli ijrochilar - ular ham rahbarlarga taalluqli ko'plab hislatlarga ega, biroq ma'suliyatli qarorlar qabul qilish chog'ida ikkilanadilar. Bunday kishilar ishni bajarishga usta bo'ladilar, o'ta mahoratli, ma'suliyatli va o'ziga ham, boshqalarga ham talabchan, haqiqatgo'y, ya'ni har joyda adolat qilishligi bilan ajra-lib turadilar. Ko'pincha asabga bog'liq somatik kasalliklar bilan og'rishadilar.

Formulalar - 505, 514, 523, 532, 541, 550.

3-tur. Xavotirli-shubhali—bunday kishilar turfa qobiliyatlar va iqtidor egalari bo'lishadi ularda nafis qo'l harakatlari ko'-nikmalaridan tortib adabiy iqtidorgacha bor. Odatda bunday odam-larga bir kasbning o'zi kamlik qiladi, ular o'z kasblarini kutil-maganda umuman qarama-qarshi kasbga o'zgartirishlari mumkin. Tartibsizlik ularga yot bo'lganligi sababli ko'plab nizolarni yuzaga keltirishadi. Ko'ngillari o'ta nozik. Ular o'zlariga ishonchsiz, tasalliga muhtojdirlar.

Formulalar- 406, 415, 424, 433, 442, 451, 460.

Bundan tashkari 415-nazmiy iqtidor egalariga mansub, 424-o'z ishini o'ta puxta qiladigan kishilarga taalluqli, ularni «qanday qilib yomon ishlash mumkinligini tasavvur qilolmayman!» degan jumlasini ajratib turadi.

4-tur. Olimlar –bundaylar voqea-hodisalarning muhim tomon-larini aniqlash uchun ularning juz'iy tomonlarini fikran bir chekkaga qo'yib tahlil qila oladilar. Konseptual tafakkurga, har narsaga o'zining qarashlarini ishlab chikish kobiliyatiga ega. Ruhan xotirjam. o'z xatti-harakatlarini aql bilan muvofiqlashtirib turadi.

Formulalar- 307, 316, 325, 334, 343, 352, 361, 370.

316 -global nazariyalar yaratish qobiliyatiga yoki ulkan hamda murak-kab ishlarni muvofiqlashtirish salohiyatiga ega.

325 - bular hayotga, sog'liqqa, biologiya va meditsinaga oid bilimlarga o'chligi bilan ajralib turadi. Ular kino, sirk, rejissura, multip-likatsiya kabi sintetik san'at bilan shug'ullanadilar.

5-tur. intuitiv - bu toifadagi odamlar sezgir asab tizimiga ega bo'lib, tez holsizlanadi. Bir faoliyatdan boshqasiga ko'chishni talab etadigan sohalarda yaxshi ish beradilar. Odatda o'zini mazlumlar hi-moyachisi sifatida ko'rsatadi. Yangilikni tez qabul qiladigan. Altruist, o'zgalarga g'amho'r. Yaxshigina qo'l ko'nikmalariga va ko'rgazmali tasavvurga ega. Bu esa o'z navbatida texnikaning ijodiy turlarida ish olib borishga imkon beradi. Aksariyat hollarda o'zlarining axloq me'yorlarini ishlab chiqadilar. Erkiga tajovuz qiladigan har narsaga salbiy munosabat bildirishadi.

Formulalar -208, 217, 226, 235, 244, 253, 262, 271, 280.

235 - psixologlar va psixologiyaga yuqori qiziqish bilan qaraydiganlar orasida ko'p uchraydi.

244 - adabiy ijod salohiyatiga ega odamlar.

217 - kashfiyotchilik qobiliyatlari bor kishilar.

226 – yangilikka muhtojlik sezadigan va o'z oldiga yuqori mqsadlar qo'yadiganlar orasida uchraydi.

6-tur. kashfiyotchi, konstruktor, rassom. —bu toifa texnik qobiliyati bor kishilarda ko'p uchraydi. Bunday odamlar boy tasavvur, fazoviy ko'ra bilish qobiliyatlariga ega, texnik, badiiy va intellektual ijodning har xil turlari bilan shug'ullanishadi. E'tibori ichki olamiga qaratilgan, intuitiv turga o'xshab ular ham o'z axloq me'yorlari bilan yashashadi, tashqaridan bo'ladigan ta'sirga o'ta ta'sirchan. His-tuyg'ularga beriluvchan, o'ziga xos g'oyalar fidoyisi.

Formulalar -109, 118, 127, 136, 145, 019, 028, 037, 046.

019 — o'z muxlislariga ega insonlarda,

118 — kashfiyotchilar va konstruktiv imkoniyatlarga ega odamlarda uchraydi.

7-tur. emotiv —bu toifa odamlari hamdardlik xususiyatiga ega, kinofilmlarning qiynoqqa soladigan lavhalarini ko'rishi og'ir kechadi. Kutilmagan hodisalardan

es-hushini yo‘qotib qo‘yishadi. Boshqalarning dardi va tashvishiga xayrixoh, achinganidan ruhan tez toliqadi. Oqibatda, o‘zlari qiyin ahvolga tushib qoladilar.

Formulalar - 550, 451, 460, 352, 361, 370, 253, 262, 271, 280, 154, 163, 172, 181, 190, 055, 064, 073, 082, 091.

8-tur. emotiv turning aksi - bu toifa odamlari birovlar dardini tushunmaydi, ularga o‘z ta‘sirini, hukmini o‘tkazishga harakat qiladilar. Yaxshi mutaxassis bo‘lsa, o‘zi zarur deb hisoblagan ishni qilishga boshqalarni majbur eta oladi. Ba‘zan bag‘ritosh, vaziyatga, o‘z muammolariga o‘ralashib qolishadi.

Formulalar- 901, 802, 703, 604, 505, 406, 307, 208, 109.

TESTGA izoh

Ushbu diagnostikaning nisbatan ishonchsizligiga qaramay, mazkur metodika psixokonsultant bilan mijoz o‘rtasida yaxshi aloqa vositasi bo‘lishi mumkin. Individual tavsif berish chog‘ida quyidagi

Savollarni berishni o‘rinli deb hisoblaymiz; Bo‘yin bo‘lsa – ko‘ngli nozikmisiz? Sizni xafa qilish osonmi?, Quloq bo‘lsa - sizni eshitishni biladigan odam deb hisoblashadimi?, Cho‘ntak bo‘lsa - bolalaringiz bor-mi? Agar biron bir rasmda bosh kiyimi bo‘lsa - kimgadir majburan yon bosib, endi afsusdamisiz?, Agar uchchala rasmda ham bosh kiyimi bo‘lsa – o‘zingizni qo‘lingiz bog‘liqday, chorasizday his qilayapsizmi?, Yuz to‘liq chizilgan bo‘lsa — muloqotchan odammisiz?, Birgina og‘iz bo‘lsa – Sergapmisiz?, Birgina burun bo‘lsa — hidga sezgirmisiz? Atirni xush ko‘rasizmi?, Odamcha tanasida aylanalar bo‘lsa -- kimgadir buyruq berish majburiyatingiz bormi?

N.P. Anikeeva fikricha, boshqa odamlar bilan muloqotda har bir shaxs muayyan ijtimoiy rolni egallaydi. Rollar shaxsni to‘laroq ochib berishi, uni niqoblashi mumkin. Lekin pozitsiya - rollarni tanlash albatta insonning o‘z mohiyatiga, uning kuchiga, zaifligiga, salohiyat darajasiga, o‘z-o‘zini tanqid qila olishiga, xulq - atvorining puxtaligiga, o‘zining chetdan ko‘ra bilish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Ba‘zan muloqotdagi muvaffaqiyatsizliklar yoshlarni benuqsonroq, himoyalanganroq bo‘lish uchun o‘zidagi eng yaxshi narsalarni yashirishga,

buzishga majbur etadi. Erta o'smirlik paytida yig'it va qizlar yakkalik holatini boshdan kechiradi. Ular his-tuyg'ularini hech kimga aytishmaydi. O'zi haqidagi va atrofdagi kishilar haqidagi axborot - muloqot usullarini va mazmunli muloqotni tashkil etishga intilishni belgilab beradi. Buning uchun ruhiy tisdagi muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Har bir kishiga xos bo'lgan ruhiy xususiyatlar asab tizimi turi bilan belgilanadi va avvalo temperamentda: ta'sir ko'rsatish sur'atida, ham tabiiy signallarda ovoz, yorug'lik, rang, hid, haroratning o'zgarishi, ham ijtimoiy signallarda so'z, voqea, o'ta sezgirlikda, emotsional ko'zg'aluvchanlikda, tashvishlilik darajasida, ekstraversiya, introversiya namoyon bo'ladi.

2-metodika bu sotsial-psixologik treninglar

Muomala malakalarni shakllantirishga mo'ljallangan ko'plab guruh va yakka holdagi amaliy mashg'ulot shakllari ichida shaxs amaliy faoliyatida vujudga keladigan muammolar yechimini topishda ko'proq qo'l keladigan mashg'ulotlardan biri sotsial - psixologik treningdir.

Sotsial-psixologik trening(SPT) shaxslararo kasbiy muloqotlaridagi qiyinchiliklarni bartaraf etish jarayonini modellashtirishga asoslangan va o'quv guruhi a'zolarining o'z jarayonida shaxsda kasbiy muloqotga layoqatlilikni rivojlantirish amalga oshiriladigan alohida shaklda tashkil etilgan hamjihatligidan iboratdir.

Faoliyatga yo'naltirilgan SPTning ajralib turuvchi tomonlari quyidagilardan iborat: qatnashchilarning birlamchi kasbiy faoliyatlari psixologik analizini o'tkazish, SPT qatnashchilarining kasbiy faoliyat strukturasiidagi muloqot o'rnini aniqlash, aytib o'tilgan elementlarni SPT davomida qo'llash.

Perseptiv-diagnostik trening maqsadi shaxslararo muloqot samaradorligini belgilovchi omil sifatida bojxona xodimlarida suhbatdoshning emotsional holati ekspress-diagnostikasini amalga oshirish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir. Treningda psixologik-pedagogik vositalar sifatida standartlashtirilgan grafik sxema-etalonlari kompleksidan foydalaniladi. Mazkur treningga alohida urg'u

berilishining sababi, uning bojxona xodimlarining kasbiy faoliyatiga maksimal yaqinligi, amaliy vaziyatlar elementlaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi hamda shaxs hayot-faoliyati shart-sharoitlariga moslab rejalashtirish va amalda qo'llash imkoniyatlarining mavjudligidir. Sotsial-psixologik trening quyidagi tamoyillarga asosan o'tkaziladi:

Faoliyatni belgilash tamoyili; Faollik tamoyili; Pozitsiyalar tengligi tamoyili; Teskari aloqani ta'minlash tamoyili; «Shu yerda va hozir» tamoyili; O'zaro ishonch asosidagi muloqot; Emotsional ochiqlik tamoyili; «Men – mulohaza» tamoyili; Shaxsiy javobgarlik tamoyili; Konfedensiallik tamoyili; Erkin tanlov tamoyili.

Amaliyotni o'tkazish 6 ta bosqichni o'z ichiga oladi.

Berilgan sharoitga moslashish, muammoning belgilanishi, o'z «men»ligi pozitsiyasini aniqlash, tadqiqot bosqichi, integratsiya, refleksiya.

Trening davomida «O'z-o'zini baholash» va «O'z-o'zini kuzatish» anketalaridan, A. Bodalyovning «Og'zaki portret» metodikasidan shuningdek, «Kommunikativ malaka va ko'nikmalarni baholash» metodikalaridan foydalaniladi. Sotsial-psixologik treningda quyidagi modellar qo'llaniladi:

1. Shaxsning kasbiy faoliyatdagi sharoit o'zgarishlari, faoliyat jarayonida yuzaga keladigan kutilmagan vaziyat o'zgarishlari psixologik modellari;

2. Noaniqlik faktori ta'siridagi xatti-harakatlarni aks ettirgan psixologik modellar: topshiriqni bajarish sharoitidagi axborot tanqisligi va qarama-qarshiligi hamda axborotning yo'qligi faktorlari.

3. Shaxs faolligini ta'minlovchi akliy faoliyatidagi yangilikka intilish va karama-karshi fikrlar xatti-harakatlari modeli. Bu model qabul qilingan qarorni amalga oshirishda shaxs faoliyatida avvaldan ma'lum bo'lmagan elementlarning mavjud bo'lishidir. Mazkur yangi elementlar mutaxassisning bilimi va tajribasiga asoslanib, aniqlanadi.

4. Harakat maromining tezlashuvi jarayonidagi xatti-harakatlar modeli. Mazkur faktor maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan vaqtning keskin qisqarishi natijasida paydo bo'ladi.

5. Harakat maromining tezlashuvi va vaqt tanqisligi sharoitidagi xatti-harakatlar modeli. Topshiriqni muvaffaqiyatli bajarilishida nafaqat harakat maromining oshirilishi talab etiladi, balki qisqa vaqt ichida boshqaruv faoliyatining psixologik strukturasi o'zgartirishga to'g'ri keladi: mazkur vaziyatda eng muhim operatsiyalarni aniqlash, ikkinchi darajali va unchalik muhim bo'lmagan operatsiyalardan voz kechish talab etiladi. Vaqt tanqisligi sharoitida nafaqat aqliy harakatlarning tezlashuvi, balki ularning ketma – ketligi ham o'zgaradi.

Taklif etilgan vaziyat quyidagi qayta ishlashlarni talab etadi:

- Vaziyatning aniq oddiy tilda bayon etilishi (uslubiy qayta ishlash);
- Mashg'ulot rejasi bayoni, qatnashchilar uchun vazifaning qo'yilishi va asoslanishi (uslubiy ishlanma).

Vaziyatga qo'yilgan topshiriqlar 5-7 savoldan oshmasligi lozim.

Sotsial – psixologik trening ikki hafta, bir oy yoki butun o'quv yili davomida o'tkazilishi mumkin. Tajriba natijalari Tajribada jami 15 nafar rempondent ishtirok etdi. Taxlillar asosida ushbu trening orkali shaxslararo munosabat tizimida ularo fikr almashinuvi ijobiy xarakter kasb etishi ta'minlandi. Agar fikrlarning turli talkini buyicha olinganda faoliyat natijalari asos kilinib olingan =olatlarda karama karshi fikrlarning ularo kelishuvi ta'minlash zaruriyligi kuzatildi.

3-metodika

O'zgalarni tinglay olish qobiliyatini baholash testi

Quyida berilgan savollarga berilgan javoblarning o'zingizga mosini tanlab belgilang.

1. Sizningcha suhbatlashishdan maqsad nima?
 - a) Suhbatdoshni yaxshiroq o'rganish
 - b) Biror masala bo'yicha o'z fikrini bildirish
 - v) fikr almashinish va muhokama qilish.
2. Sizga bolalar «Bulutlar qaerda uxlaydi?», «Buvilar kichkina bo'lishganmi?» tarzida savollar berishadimi?

- a) ha, tez-tez.
 - b) Hech qachon.
 - v) Ba'zan
3. Ertalab ishga yoki o'qishga ketayotib, qo'shiq xirgoyi qilasizmi?
- a) ha, doimo bir xil ashulani
 - b) ha, odatda har xil ashulani
 - v) yo'q, hech qachon
4. Yig'ilish oxirida ma'ruzachiga savollar berasizmi?
- a) ha, doimo nimanidir so'rashga to'g'ri keladi
 - b) ba'zan, uning fikri bilan qo'shilmaganimda
 - v) hech qachon
5. Do'stingiz yoki kasbdoshingiz bilan suhbatlashgandan so'ng o'sha muammo yuzasidan o'z qarashlaringizni o'zgartirganmisiz?
- a) ko'pincha shunday bo'ladi
 - b) ba'zan
 - v) hech qachon
6. Kim bilandir suhbatlashayotganda:
- a) ko'proq siz gapirasiz
 - b) ko'proq suhbatdoshingiz gapiradi
 - v) ikkalangiz teng gapirasiz
7. Narxi bir xil bo'lganda siz nimani xarid qilishni afzal ko'rasiz?
- a) kitobni
 - b) gramplastinkani
 - v) kinoga pattani
8. Sherigingiz Sizga aloqasi bo'lmagan o'z muammosi xususida gaplashmoqchi. Siz nima deb o'ylaysiz?
- a) «qimmatli vaqtni yo'qotdim-a»
 - b) «endi unga ta'sirim kuchliroq bo'ladi»
 - v) «unga yordam beryapman»
9. Quyidagi jumllarning qay biri sizning nuqtai nazaringizga to'g'ri keladi?
- a) ayni muammo yuzasidan mutaxassisgina aniq fikrga ega bo'lishi mumkin;
 - b) chiroyli gapirishni bilgan odam xoxlagan mavzusida ham gapirishi mumkin.
 - v) ko'pincha mutaxassislarga o'z muammolari va g'oyalarini bayon etish uchun notiqlik malakasi yetishmaydi.
10. Suhbat chog'ida xayolingiz chalg'ib ketsa, nima qilasiz?
- a) gapirayotganni to'xtatib, o'sha yerni qaytarishni so'rayman
 - b) suhbat oxirida so'rash uchun o'zim uchun noaniq joyni eslab qolaman

v) umuman menga hamma narsa ayon.

11. Ertalab radio orqali eshitgan axborot yoki qo‘shiqni qaytara olasizmi?

a) ha, doimo

b) ha, lekin esga tushirish uchun vaqt kerak

v) eslay olmayman

12. Estrada qo‘shiqchisida sizga ko‘proq nima yoqadi?

a) ovozi

b) tashqi ko‘rinishi

v) sahnada o‘zini tutishi

13. Konsertlarga tushish siz uchun:

a) qoniqish hosil qiladigan xodisa

b) ko‘p qatori bo‘lish

v) yaxshi ko‘rgan xonanda bilan uchrashuv

14. Siz mehmondasiz, u yerda sizdan boshqa yana 5-6 kishi bor. Siz gap boshlaganingizda, ko‘pincha:

a) sizni hech kim tinglamaydi

b) hamma sizga mahliyo bo‘ladi

v) siz suhbatning tashabbuskori emassiz.

15. Siz jamiyatda ro‘y berayotgan barcha xodisalardan xabardorsiz. Chunki siz:

a) muntazam televizor ko‘rasiz

b) radio eshitasiz

v) gazeta o‘qiysiz.

Ballarni hisoblash:

Savollar	Javoblar			Savollar	Javoblar		
	a	b	v		a	b	v
1	2	1	3	9	1	2	3
2	3	1	2	10	3	3	1
3	2	3	1	11	3	2	1
4	2	3	1	12	3	1	2
5	2	3	1	13	3	1	2
6	1	2	3	14	2	3	1
7	3	1	2	15	3	3	1
8	1	2	3				

Ballarni qo‘shib chiqing.

15-20 ball. Siz o'zgalarni tinglamaysiz. Balki siz o'zgalarni tinglashdan oladigan foydaning qadrini bilmassiz, lekin siz bilim va tajriba uchun bu ishning foydasini bilishingiz zarur.

25-30 ball. Siz o'rtacha tinglovchisiz. Siz uchun suhbat ma'lumot manbai va muloqot uchun yetarli asos emas. Sizdan ko'p narsani o'rganish mumkin, lekin o'zingiz ham boshqalarda ko'p narsa olishingiz mumkinligini, tanqid va e'tirozlar ham foydali ekanligini unutmang, ko'proq boshqalarni tinglang.

35-45 ball. Sizda noyob sifat — o'zgalarni tinglash va meyorida gapirish bor. Siz bilan suhbatlashish juda yaxshi, chunki suhbatdosh sizdan doimo naf oladi. Siz o'zgalarning xolatlarini tushunishga ham moyilsiz, ana shu noyob sifatni saqlang.

3 metodika. **Kommunikativlikni baholash testi**

Test muomalaga kirishuvchanlik darajasini baholaydi.

Ko'rsatma: 16 ta savolga uchta javobdan maqbul varianti tanlanadi: «ha», «yo'q», «ba'zan».

Quyida berilgan 16 savolga «ha», «yo'q», «ba'zan» deb javob bering:

1. Sizni amaliy uchrashuv kutmoqda. Uni betoqatlik bilan kutasizmi?
2. Sizni biror kasallik holdan toydirmaguncha, vrachning oldiga borishni orqaga suravermaysizmi?
3. Sizni biror mavzudagi axborot bilan yig'ilish, majlis va shunga o'xshash tadbirda ma'ruza bilan chiqish topshirig'i xavotirga soladimi?
4. Sizga ilgari bormagan shahringizga safarga borib kelishni taklif etishdi. Shu safarga bormaslik uchun bor imkoniyatni ishga solasizmi?
5. O'zingizdagi hissiy kechinmalar bilan kimlar bilandir o'rtoqlashishni yaxshi ko'rasizmi?
6. Ko'chada sizga notanish odam biror iltimos bilan murojaat qilsa, sizning g'ashingiz keladimi?
7. Siz «Otalar va bolalar» muammosi borligi va turli avlod vakillarining birbirlarini tushunishlari qiyinligiga ishonasizmi?
8. Tanishingizga bir necha oy avval olgan qarz pulini eslatishga uyalasizmi?
9. Oshxona yoki restoranda sizga yoqmaydigan taom berishdi, idishni chetga surib, achchig'ingiz kelganini yashira olasizmi?
10. Begona odam bilan yolg'iz qolganingizda, u birinchi bo'lib gap boshlasa, Sizga javob qaytarish malol keladimi?

11. Siz turli yerlarda odamlarning uzun navbatda turishganini ko'rsangiz, toqatingiz toq bo'ladimi. Navbatda turib kutishdan ko'ra, o'z niyatingizdan voz kechishni afzal ko'rasizmi?

12. Biror janjalli vaziyatni muhokama qilishi kerak bo'lgan komissiyaning a'zosi bo'lishdan qo'rqasizmi?

13. Sizda biror adabiyot, san'at va madaniyat asarlarini baholashning sof individual mezonlari bor va bu borada boshqalarning fikrini qabul qilmaysiz. Shundaymi?

14. Sizga juda tanish bo'lgan masala bo'yicha boshqalarning noto'g'ri fikrlarini tasodifan eshitib qolsangiz, indamay qo'ya qolasizmi?

15. U yoki bu masalada yordam berishingizni so'rasha, siz bundan og'rinasizmi?

16. O'z nuqtai nazarangizni og'zaki bayon etgandan ko'ra, uni yozma tarzda ifodalashni afzal ko'rasizmi?

Ballarni hisoblash:

«ha» — 2 ball, «gohida» — 1 ball, «yo'q» — 0. Shu tarzda ballarni qo'shib chiqib quyidagi toifalarning qay biriga kirishingizni bilib olasiz.

14-18 ball. Sizning muloqotga kirishuvchanligingiz yaxshi, o'rtacha. Siz ko'p narsaga qiziqasiz, boshqalarni bajonidil tinglaysiz, o'zgalar fikriga sabr-toqatlisiz, o'z fikringizni bosiqlik bilan izhor etasiz. Begonalar bilan uchrashuvga borish siz uchun unchalik noxush emas, lekin shovqin-suronli davrani yoqtirmaysiz, odamlarning sergapi sizga yoqmaydi.

9-13 ball. Siz muloqatga kirishuvchansiz. Qiziquvchan, sergap, turli masalalarda o'zgalar bilan gaplashishni yaxshi ko'rasiz. Yangi odamlar bilan tanishish, davraning diqqat markazida bo'lishni yoqtirasiz. O'zgalarning iltimoslarini bajarmasangiz ham qabul qilaverasiz. Achchig'ingiz tez, lekin tez soviysiz. Sizga sabr-toqat, qiyinchiliklar bilan to'qnashganda jasorat yetishmaydi. Lekin astoydil xohlasangiz, o'zingizni yon bermaslikka ko'ndirishingiz mumkin.

4-8 ball. Sizning muloqat malakangiz yomon emas, siz barcha ishlarning guvohi bo'lib yurasiz. Munozaralarda qatnashishni yaxshi ko'rasiz, biror masala yuzasidan yuzaki tasavvurga ega bo'lsangiz ham, o'z fikringizni aytishni xoxlaysiz. Ishni oxiriga olib bora olmasangiz ham har qanday ishni boshlayverasiz. Shuning uchun ham rahbarlaringiz va kasbdoshlaringiz sizdan xavotirda bo'lishadi. Bu haqda o'ylab ko'ring.

3 va undan kam ball. Sizning kommunikativ malakalaringiz yaxshi emas, siz sergapsiz, har narsaga aralashaverasiz. O'zingiz umuman bexabar bo'lgan narsalar

xususida ham fikr yuritaverasiz. Ixtiyorsiz tarzda turli ziddiyatlar va janjallarning ishtirokchisiga aylanib qolasiz. Jizzaki, salga xafa bo‘ladigan odatingiz bor, shuning uchun odamlar siz bilan chiqisha olmaydilar. O‘zingizni tutish, sabr-toqatli bo‘lish uchun odamlarga hurmat bilan qarashga o‘rganing. Qolaversa, o‘z sog‘lig‘ingiz haqida qayg‘uring, chunki bunday hayot tarzi izsiz bo‘lmaydi, asablaringiz charchab qolishi mumkin.

Xulosa.

Har tomonlama rivojlangan, yetuk, komil insonni tarbiyalash uchun yoshlarni erkin fikrlaydigan qilib voyaga yetkazish zarur. Bu muddatda shaxslararo munosabat, ijtimoiylashuv, akliy faoliyat, shaxs faolligi jarayonlarining shakllanishi va rivojlanishi muxim ahamiyatga egalir.

Demak, muloqot fikrlash bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. XXI asrda yashaydigan har bir insonning tanqidiy fikrlashi uchun avvalo muloqotga o'rgatish zarur. O'quvchilar tafakkurini o'stirmay turib, ularning nutqini o'stirib bo'lmaydi. Og'zaki gapirish, bayon yoki insho yozishda o'quvchilarning reja tuzib olishlariga e'tibor berish kerak. Bizning yuksak ma'naviy ehtiyojlarimizdan biri-bu muloqotga bo'lgan ehtiyoj.

Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojimizni qondirishimiz lozim.

Demak, har bir yoshda mulokatga kiradigan kishilar, shu jumladan, kattalar ham o'ziga xos muloqotga kirishadilar. Muloqot har bir davrga xos holda amalga oshiriladi. Shaxsning har tomonlama shakllanishida muloqotning ahamiyati katta. Oddiy narsalarni o'rganish uchun ham taqlid orqali o'zaro muloqotda bo'lish zarur. Jamiyat qonun - qoidalariga asoslangan holda munosabatlar rivojlanadi. Individ bilan shaxs muloqoti o'rtasida juda katta farqni ko'rish mumkin.

Muloqotga kirishuvchilarning o'zaro yaqinligi bilan, bir-birlari bilan muloqotdan qoniqish hosil qilganligining yuksak darajasi, javob tariqasidagi his-tuyg'ular va afzallikning o'zaro taxmin qilinishi bilan belgilanadigan o'zaro munosabatlar va o'zaro birgalikdagi harakatning barqaror individual-tanlash tizimi sifatidagi do'stlik kishilar munosabatining alohida shakli sifatida yuz beradi. Do'stlikning rivojlanib borishi uning o'zaro hamjihatlikning zarurligini, oshqoralik va ochiqlikni, ishonchni, o'zaro faol yordamlashuvni, samimiylikni va his-tuyg'ularning beg'arazligini qaror toptiruvchi yozilmagan qonun - qoidaga amal qilishini taqozo etadi.

Tavsiya.

Olingan natijalar va kuzatilgan vaziyatlar asosida shaxslararo nizolarni oldini olish, shaxslararo munosabatlarni ijobiy xarakterini ta'minlashda quyidagi tavsiyalarni berib utmochimiz.

1 Xar kandy vaziyatda shaxs erkin fikrlash imkoniyatini berish zarur.

2.Xar bir shaxsning uziga xarkater nuktai nazariga kuzra tinglash , sabrlilik xususiyatlariga doim e'tibor berish maksadga muvofik.

Shaxssning yoshga xos psixologik xususiyatlarini, kasbif faoliyatini va egallagan bilim, kunikma va malakalari asosida uzaro munosabatga kirishi jarayonini ba=olash zarur.Chunki xar bir odam uz nuktai nazariga kura kasbiy va xayotiy tajribalariga kuprok yondashadi.

3.Shaxs extiyolarining ayniksa mulokatga bulgan extiyojini kondirilishi uzaro kelishish imkoniyatini beradi.Chunki ijobiy tarzda extiyojlarning tula kondirilishi shaxsning psixologik konikishini ta'minlaydi. Bu esa fikrlar rang barangligidagi nizoli xolatlarni oldini olish imkonini beradi.

Inson o'zini idora qilish, turli vaziyatlarda o'zini tutish fazilatleri o'zlashtirilayotgan davrda ba'zi bir qoidalarga rioya qilsa, hamqorlik fazilatida ma'lum yutuqlarga erishadi:

1. Ijtimoiy hodisalarning tashqi voqe bo'lishi nafaqat ichki ruhiy holat va uning mazmunini aks ettiribgina qolmaydi, balki ikki tomonlama aloqa tufayli mazkur jarayon yuzaga keladi.

2. Ixtiyoriy, faol diqqatning tashqi ob'ektlarga yo'naltirilganligi va to'planganligi turli omillar ta'siri tufayli samaradorlik darajasini pasaytiradi, asabiy holat ishchanlikni kamaytirib muloqot maromiga putur yetkazadi.

3. Inson o'zini erkin, ozod, bemalol his etish hislatini o'zlashtirish uchun jismoniy keskinlik, asabiy taranglik, aqliy zo'riqish orqali ko'zlangan maqsadiga yetishi mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. O‘zbekiston Respublikasi oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma’ruza, 1995 yil 23 fevral.
- 2.Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T. O‘zbekiston, 1997 - 326 b.
- 3.Karimov I.A. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. O‘zbekiston Respublikasi oliy Majlisining IX sessiyasidagi ma’ruza. 1997 yil 29 avgust.
- 4.Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. Birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi oliy Majlisining o‘n to‘rtinchi sessiyasidagi ma’ruza. 1999 yil 14 aprel.
- 5.Karimov I.A. O‘zgarish va yangilanish - hayot talabi. Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida so‘zlangan nutq. 2000 yil 25 may.
- 6.Karimov I.A. O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari. Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi oliy Majlisining to‘qqizinchi sessiyasidagi ma’ruza. 2002 yil 29 avgust.
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent O‘zbekiston, 1993y
- 9.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi T. 1997 yil 29 avgust
- 10.Karimov I.A “Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili”. T. O‘zbekiston, 1995 yil.
- 11.Karimov I.A “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” T. 1997 y.
- 12.Karimov I.A “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” T. “Ma’naviyat” 2008.

- 13.Karimov I.A Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uni O‘zbekiston sharoitida bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.; O‘zbekiston, 2009.
- 14.Karimov I.A “Asosiy vazifalarimiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” T- O‘zbekiston. 2010 yil. 74 – bet
- 15.Karimov I.A Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi, - T, O‘zbekiston, 2010.
- 16.Karimov I.A. «O‘zbekiston XXI asr bo’sagasida: xavfsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va tarakkiyot kafolatlari» Toshkent. 1997 y.
- 17.Karimov I.A. «Barkamol avlod-Uzbekiston taraqqiyotining poydevori» Toshkent. 1997 y.
- 18.Karimova V.M. «Ijtimoiy psixologiya asoslari» Toshkent. Uk. 1994 y.
- 19.Karimova V.M . «Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot» Toshkent. Universitet. 1999 y.
- 20.Karimov I.A, “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir”, “Ishonch” gazetasi, 2010yil 8 dekabr
- 21.Karimova V. Psixologiya. 2002. 160-161-betlar.
- 22.Ashrapova T. Odilova M. Ona tili metodikasi. T., “O‘qituvchi”, 1994, 142-bet.
- 23.G‘ulomov A, Qobilova B. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. T, “O‘qituvchi” 1995 yil,6-bet.
- 24.E.G‘oziev. Muomala psixologiyasi. T.2001 23-bet.
- 25.G‘oziev E. Muomala psixologiyasi. Toshkent, 2001.
- 26.G‘oziev E. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2002.
- 27.G‘oziev E. Psixologiya. Toshkent, «O‘qituvchi», 2003.
- 28.Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. Toshkent, ToshDPU, 2002.
- 29.Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent, 1989.
- 30.Psixoanaliz asoslar. «O‘zbekiston», tuzuvchi M.Otajonov, 2005.
- 31.Maqsudova M. Muloqot psixologiyasi. Toshkent, 2006.
- 32.Karimova V. Psixologiya. Toshkent, 2000.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Karnegi D. Muomala sirlari. Toshkent, «Navro‘z», 1992.
2. Qosimov S., Mo‘minov N. Rahbarlik qobiliyati va boshqaruv masalalari. Toshkent, 2001.
3. Adizova T. Boshqaruv muloqoti psixologiyasi. Toshkent, 2000.
4. Ergashev P. Muloqot psixologiyasi (ma‘ruzalar matni). Toshkent, 2003.
5. Q. Daminov, O‘. Otavaliyeva, X. Ibrohimov. «Seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari»-Toshkent -1994 y.
6. Rogov Ye.I. «Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa». -1-2-chast-Moskva-1999g.
7. M. Karimova. «Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot».-Toshkent-1999y.

Internet saytlari:

www.ziyonet.uz

www.pedagog.uz

Ilovalar.

FAOL TINGLOVCHI BO‘LISH MEXANIZMLARI»

Diqqat va chidam bilan tanglash o‘z-o‘zini tasdiqlash ehtiyojlarining qondirilishi

ijobiy his-tuyg‘ularni vujudga keltirish ijobiy his-tuyg‘ularni manbalariga asoslanish

Diqqat bilan tinglash xodimning ehtiyojlarini qondirishga olib keladi. Unda ijobiy his-tuyg‘ular paydo bo‘ladi. Rahbarga nisbatan attraksiya, simpatiya vujudga keladi. Xodimga nisbatan qarshi fikr bo‘lsa rahbar unga bir necha muddatdan so‘ng yaxshilab gaplashib olishlarini aytib ketishi kerak. Har bir xodimni tinglashga vaqt ajratish kerak.

Chunki u doimo rahbarning ko‘rsatmalarini bajaradi. Rahbar boshqa rahbarning oldiga bir buyurtma qog‘ozni o‘zi olib borganida uni kotiba boshlig‘ining oldiga kimgazmaydi. Shunda rahbar kotibaning gul o‘stirishga qiziqishini eshitib, qaytib uning oldiga kiradi. U kotiba bilan gul o‘stirish haqida 1 soat suhbatlashadi. Natijada suhbat oxirida kotiba rahbarning hujjatini olib qoladi. Demak, boshqalarning qiziqishlarini eshitish orqali ishonchiga kirib olish mumkin. Lekin 10—15% rahbarlar kotiba oldida past ketamizmi, deb o‘ylaydilar. Lekin ishni tez bitishi uchun bu usulni qo‘llash yaxshi natija berishi mumkin. Yuqoridagi rahbar vaqtni qadrlagani uchun kotibaga shu usulni qo‘lladi. Bu vaziyatda kotiba ham rahbar ham jabr ko‘rgani yo‘q. Rahbar kotibani tarbiyaladi ham.

Yutuqli chipta. O‘zining imkoniyatlarini hisobga olish usullari bo‘yicha quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Maqsadga erishish uchun yuqoridagi holatlarni hisobga olsangiz muvaffaqiyatlarga erishishingiz oson bo‘ladi. Bu usullarni qo‘llash orqali siz hech narsa yutqazmaysiz.

2. Bu usullarni siz ilgari ba‘zan qo‘llagan edingiz, faqat shaxsiy munosabatlardagina, endi ishda ham qo‘llay olasiz. Ilgari siz bu usulni qulayligini,

boshqalarda attraksiyani vujudga keltirishini o‘ylamagan holda qo‘llagansiz. Endi siz bu usullarni tizimli, maqsadli, ongli holda qo‘llaysiz.

3. Agar sizning suhbatdoshingiz bu usullarni qo‘llasangiz ham sizga yordam bermasa-da, asta-sekin siz maqsadingizga erishib borasiz. Xodimlaringizning ismini eslab qolishdan ishni boshlang.

2. «Eslab qolish illuziyasi» fenomeni bo‘yicha, siz qo‘lingizga soatni olib unga qarab yuqoridagi usullarni yodlashga harakat qiling. Ko‘pincha (Panasyuk A.Y.) buni uddalash uchun 8 sekund vaqt ketadi.

Qoida: «o‘zingiz ustingizda ishlang», ya’ni atrofdagilarning muloqotini kuzating, ular qanday muloqotda bo‘lmoqdalar, nima uchun ularni boshqalar yaxshi ko‘radi, ularga talpinadi, suhbatlashgisi keladi.

Glossari

1. **Avtoritarlik** – (lot. *autoritas* – ta’sir, hukmronlik) – shaxsning o‘zaro hamkorlik va muloqotdagi sheriklarini o‘z ta’siriga bo‘ysindirishga intilishini ifoda etuvchi ijtimoiy-psixologik xarakteristikasi.
2. **Avtoritet** – (lot. *autoritas* – ta’sir, hukmronlik) – a). individning egllagan o‘rni lavozimi, statusiga asoslangan ta’siri; b). individning hamkorlikdagi faoliyat sharoitida mas’uliyatli qoror qabul qilish huquqini tan olish.
3. **Agressiya** – (lot. *aggredi* – hujm qilmoq) – o‘zga kishi yoki kishilar guruhini yo‘q qilish, unga jismoniy va psixologik zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakat.
4. **Alturizm** – (lot. *alter* - o‘zga) – o‘zga kishining yoki ijtimoiy guruhning qiziqishlari markaziy motiv va asosiy axloqiy baho mezoni bo‘lib qabul qilinadigan shaxs baho yo‘nalishi tizimidir.
5. **Anketa** – verbal (so‘z yordamida) kommunikatsiya asosida birlamchi sotsiologik va sotsial - psixologik axborotlarni olish uchun mo‘ljallangan uslubiy vosita.
6. **Apatiya** – (yunon. *apatheia* - hissizlik) – intilish va qiziqishlarning pasayishi, atrof muhitdagi voqealarga befarqlik, tuyg‘ularning o‘tmaslashishi, emotsional passivlik bilan xarakterlanadigan holat.
7. **Autizm** – (yunon. *autos* - o‘zi) – o‘z kechinmalari dunyosiga g‘arq bo‘lish, individning real atrof - olam bilan aloqadan qochishi tarzida namoyon bo‘ladigan psixologik begonalikning yuqori darajadagi shakli.
8. **Affekt** – (lot. *affectus* – ruhiy hayajon, ehtiros) – sub’ekt uchun hayotiy muhim sharoitlarning keskin o‘zgarishi hamda ichki organlar funksiyasidagi o‘zgarishlar bilan kechadigan kuchli va nisbatan qisqa muddatli emotsional holat.
9. **Verbal** – (verbalis – og‘zaki) – psixologiyada belgili material shakllarini aks ettirishda qo‘llaniladigan atama.
10. **Depressiya** – (psixologiyada), (lot. *depressio* – tushkunlik, ezilish) – salbiy emotsional fon bilan xarakterlanadigan, kognetiv(bilish jarayonlari), motivatsiya sohasidagi o‘zgarishlar va xatti-harakatning umumiy passivligi bilan kechadigan affektiv holat.
11. **Dialogik muloqot** –muloqotdagi sheriklarning o‘zini va bir-birni tushunishlarini maqsad qilgan, teng huquqli «sub’ekt – sub’ekt» tarzidagi muloqot.

12. **Jargonlar** - umummilliy til bazasida qurilgan, ammo o'z leksik va frazeologik tomonlariga alohida so'z tizimiga ega bo'lgan, ma'lum bir kasb egalari, guruhlar doirasida tushunarli bo'lgan shartli til.
13. **Identifikatsiya** - (lot. *identificare* - moslash) – biror kishini yoki narsani tanish; bir ob'ektni boshqa ob'ekt bilan o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash tarzida kechadigan qiyoslanishi jarayoni.
14. **Imperativ muloqot** - avtoritar, direktiv muloqot shakli. Muomaladagi sherik bilan uning xatti-harakatini, hayotiy ustanovkalari va fikrlarini nazorat qilish, uni ma'lum harakatlar yoki qarorlar qabul qilishga majbur etishni maqsad qilib oluvchi muloqot.
15. **Individ** – (lot. *individuum* – bo'linmas) – insonning yakka tabiat mavjudodi, Homo sapiens (aqli mavjudot) tur vakili sifatida namoyonligi.
16. **Intuitsiya** – (lot. *intueri* - sinchkovlik, diqqat bilan qaramoq) – hosil bo'lishi va sharoitiga ko'ra sezish kanallari vositasiz hosil bo'ladigan bilimlar.
17. **Izchillik effekti** – ma'lumotlar ziddiyatli bo'lgan taqdirda inson qiyofasini va u to'g'risidagi tasavvurni shakllantirishga birinchi navbatda kelib tushgan ma'lumotlar eng ko'p ta'sir etishida namoyon bo'ladi. Agar bu tanish odamga daxldor bo'lsa, aksincha, eng oxirgilari ko'p ta'sir ko'rsatadi.
18. **Konflikt** – (lot. *conflictus* – qarama-qarshilik, ziddiyat) – tomonlarning yoki hamkorlikdagi sub'ektlarning qarama-qarshi yo'nalishdagi manfaatlari, maqsadlari, pozitsiyalari, fikr va qarashlari to'qnashuvi.
19. **Kuzatish** – ma'lum sharoitdagi psixik hodisalarni ularning o'ziga xos o'zgarishlarini hamda bu hodisalarning mazmunini o'rganish maqsadida tizimli va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan holda o'rganish.
20. **Manipulyativ muloqot** – muloqotdagi sherikka o'z maqsadiga erishish uchun zimdan, yashirin tarzda ta'sir etishga asoslangan muloqot.
21. **Motiv** – (lot. *movere* – harakatga keltirmoq, undamoq) – sub'ektning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatga undovchi sabab; shaxsning xatti-harakat va xulq-atvor tanlovi asosida yotuvchi anglangan sabab.
22. **Motivatsiya** – organizmning faolligi va uning yo'nalganligini yuzaga chiqaruvchi intilishlar.
23. **Oreol effekti** - agar inson haqidagi umumiy tasavvur yaxshi bo'lsa, uning ijobiy xislatlari ortiqcha baholanadi, salbiy xislatlari esa sezilmaydi va aksincha.

24. **Refleksiya** – (lot. *reflexio* – orqaga o‘girilmoq) – sub’ektning o‘z ichki psixik aktlari va holatlarini anglashi jarayoni.
25. **Rol** – (ijtimoiy psixologiyada) (frans. *role*) – shaxsning sotsial funksiyasi; shaxslararo munosabatlar tizimida odamlarning jamiyatdagi pozitsiyasi yoki statusidan kelib chiqqan holda qabul qilingan me’yorlarga mos keluvchi xulq- atvor usullari
26. **Stress** - (ingl. *stress* – bosim, zo‘riqish) - inson jismining turli ekstremal ta’sirlarga (stressorlar) qarshi javob holatini aks ettiruvchi atama.
27. **Stereotiplashtirish** – muayyan ijtimoiy guruhga xos xislatlarning idrok etilayotgan kishiga tadbiq etilishi.
28. **Senzitivlik** - (lot. *sensis* – his, sezgi) – insonning o‘z atrofida bo‘layotgan hodisalarga yuqori darajadagi ta’sirchanligi (sezgirligi) xarakter xususiyati. Odatda yuqori xavotirga beriluvchanlik, yangi vaziyatlardan, yangi odamlardan, turli sinovlardan qo‘rquv holati bilan birgalikda kechadi.
29. **Test** - (ingl. *test* – sinov, tadqiqot, tekshiruv) (psixodiagnostikada) – standartlashtirilgan, ko‘pincha vaqt bilan chegaralangan, individual-psixologik farqlarning miqdoriy (va sifat) darajalarini aniqlashga mo‘ljallangan sinov.
30. **Temperament** – (lot. *temperamentum* – qismlarning nisbati) – individning dinamik xususiyatlari tomonidan xarakteristikasi: psixik jarayonlarning intensivligi, tezligi, tempi, ritmi.
31. **Xarakter** – (yunon. *charakter* – muhr, naqsh) – shaxsning faoliyat va muomala jarayonida yuzaga chiqadigan va qaror topadigan, uning faqat o‘ziga xos bo‘lgan tipik xulq-atvor usullari bilan belgilanadigan barqaror individual xususiyatlari majmui.
32. **O‘z-o‘ziga baho** - shaxsning o‘z imkoniyatlari, sifatlari va boshqa odamlar orasidagi o‘rniga bergan shaxsiy bahosi.
33. **Egoizm** - (lot. *ego* – men) – sub’ektning hayotiy faoliyatda boshqa odamlar va ijtimoiy guruhlar manfaatlarini hisobga olmagan holda, o‘z shaxsiy manfaatlarini va ehtiyojlarini ustun qo‘yishi bilan xarakterlanadigan baho yo‘nalganligi.
34. **Eksperiment** – (psixologiyada) (lot. *experimentum* – sinov, tajriba) – tadqiqotchi tomonidan bir va bir necha o‘zgaruvchan faktorlar bilan rejali manipulyatsiyani va o‘rganilayotgan ob’ekt xatti-harakatidagi tegishli o‘zgarishlarni qayd etishni amalga oshiradigan vaziyatga chetdan faol aralashishi.

35. **Emotsiyalar** – (lot. *emoveo* – hayratga tushiraman, hayajonlantiraman) – hodisa va vaziyatlar hayotiy mazmunini ularning sub’ekt ehtiyojlarining ob’ektiv munosabatlari bilan shartlangan bevosita ehtirosli shaklda psixik aks ettirilishi.
36. **Empatiya** – (yunon. *empathia* - hamdardlik) – boshqa odamning emotsional holatini anglash, uning his-tuyg‘ulari, kechinmalariga kirib borish, his etish.
37. **Etnik steriotiplar** - turli etnik guruh vakillariga xos bo‘lgan axloqiy, aqliy va jismoniy sifatlariga nisbatan barqaror tasavvurlar.